

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

ZAXIDOV KOBILJON TAIRDJANOVICH

**ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA UNGA
TASHQI SIVILIZATSIYALARNING TA’SIRI (VII-IX asrlar)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)
on historical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
историческим наукам**

Zaxidov Kobiljon Tairdjanovich

Arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi
sivilizatsiyalarning ta'siri (VII-IX asrlar) 3

Zaxidov Kobiljon Tairdjanovich

The formation of the Arab-Muslim state and the influence of foreign
civilizations (VII-IX centuries) 41

Захидов Кобилжон Таирджанович

Формирование арабо-мусульманской государственности и влияние
внешних цивилизаций (VII-IX века) 77

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ 83

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

ZAXIDOV KOBILJON TAIRDJANOVICH

**ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA UNGA
TASHQI SIVILIZATSIYALARNING TA’SIRI (VII-IX asrlar)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2023.3.DSc/Isl11 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida bajarilgan.
Dissertatsiya referati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iiu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Hasanov Ahadjon Ahmadjonovich tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Muhammadsiddiqov Muhammadolim Muhammadroziq o‘g‘li siyosiy fanlar doktori, professor Yusupova Dilorom Yunusovna tarix fanlari doktori, professor, akademik Is‘hoqov Mirsodiq Mirsultonovich tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil ____ fevral soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (170 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ____ fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 3-fevraldagi 01-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M. Islamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo davlatchilik tarixi va tizimlari orasida arab-musulmon an'analari, ilk o'rta asrlarda Arabiston yarimorolida (الجزيرة العربية) vujudga kelgan islom davlati, VII-IX asrlarda jamoaviy boshqaruvdan davlatchilik unsurlarining ajralishi, teokratik avtoritar tizimdan monarxiyaga o'tish jarayonlari dalillangan. Bunga Eron va Vizantiya imperiyalari boshqaruv va harbiy sohadagi an'alarining bosqichma-bosqich joriy qilib borilishi, davlat boshqaruvida diniy va dunyoviy omillarning o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va madaniy masalalar tarixini o'rganish orqali xalifalik davlati (الخلافة) tuzishni yagona yo'l deb talqin qilayotgan guruhlariga qarshi kurashish asoslarini mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonda islom ta'limoti va tarixini o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot muassasalarida ilk o'rta asrlarda arab-musulmon davlatining shakllanishi hamda bunga tashqi sivilizatsiyalarning ta'sirini o'rganish, islom tarixi, arab-musulmon madaniyati, adabiyoti va san'ati rivojlanishining umumiy muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Islomda davlatchilik masalasi, boshqarish shakli, davlat hokimiyatining tarkibiy asoslarini nazariy jihatdan tahlil etish arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta'siri, davlat tizimi shakllanishida dunyoviy va diniy omillarning o'zaro muvozanati hamda ularning uyg'unlashuvi bilan bog'liq jarayonlarni anglab yetish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

So'ngi yillarda yangi O'zbekistonda milliy davlatchilik tarixini birlamchi manbalar asosida tadqiq etish, o'zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari va unga tashqi hamda ishki ta'sirlarni o'rganishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, *"Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning yurtimizdagidek boy o'tmish, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"*¹. Bu borada olib borilayotgan islohotlar natijasida Markaziy Osiyo hududida o'z ta'siriga ega bo'lgan arab-musulmon davlatchiligi tarixini o'rganish, unga mahalliy boshqaruv an'alarining singib borish jarayonini tahlil etish orqali "Uchinchi renessans" asoslari hisoblangan IX-XV asrlar yurtimiz boshqaruv, madaniy-ma'naviy hayoti taraqqiyotini to'laqonli anglab yetish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 28-avgustdagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Islom sivilizatsiyasi markazi asrlar davomida xalqimizga xizmat qiladi // president.uz/uz/3085

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiyaa O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’siri (VII-IX asrlar), islom davlatchiligi tarixi, undagi diniylik va dunyoviylik prinsiplarining o‘zaro muvozanati, poytaxt masalasi mavzusi bilan bog‘liq muammolar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Rossiya fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari instituti (Российская академия наук, Институт Восточных рукописей (Санкт-Петербург), Madina islom universiteti (الجامعة الإسلامية بالمدينة المنورة), al-Azhar universiteti (جامعة الأزهر), Boku davlat universiteti (Bakı Dövlət Universiteti), Oksford islom tadqiqotlari markazida (Oxford Center For Islamic Studies) ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’siri bo‘yicha quyidagi natijalar olingan: Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hayoti, vahiy fenomeni, Madina shahar-davlati faoliyati yoritilgan (Sharq qo‘lyozmalari instituti. Sankt-Peterburg, Rossiya fanlar akademiyasi), Islom tarixi bo‘yicha yozilgan ilk manba va adabiyotlar tahlil etilgan (Madina islom universiteti), Xulafoi roshidun, Umaviylar va Abbosiylar sulolalari tarixining ilmiy tadqiqi (al-Azhar universiteti), Islomning sunniylik va shialik oqimlariga bo‘linishi sabablari ochib berilgan (Boku davlat universiteti) hamda poytaxt va harbiy-siyosiy oqimlarning yuzaga kelishi tahlil etilgan (Oksford islom tadqiqotlari markazi).

Jahonda arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’siri bilan bog‘liq quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Arabiston yarimorolida tashkil topgan islom dinining dunyo tamadduniga yoki aksincha tashqi sivilizatsiyalarning islom davlatchiligiga ta’siri, xalifalik institutlarining paydo bo‘lishi, ishki va tashqi siyosiy va diniy ixtiloflar, sulolalararo kelishmovchiliklar, harbiy yurishlar natijasida mintaqalarda arablashuv jarayonlari, iqtisodiy siyosatning yuritilish tartibi, aholining ijtimoiy ahvoli masalasini o‘rganish.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.dissercat.com>; <https://www.deutsche-gesellschaft-fuer-ordenskunde.de>; <https://www.numisbids.com>, <https://forum.faleristika.info>, <https://sammlung.ru>, <http://ihist.uran.ru> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ijtimoiy fanlarning turli sohalarida, jumladan, tarix, dinshunoslik, falsafa hamda manbashunoslik fanlarida islom tarixi, uning mohiyati, islom dini va arab davlatchiligiga oid masalalarni o'rganishga doir mavjud ilmiy asarlar, xususan ilk islom tarixini yaxlit holda o'z ishiga olgan birlamchi manbalar – Abu Yusuf (113/731-182/798), Ibn Hishom (vaf. 218/833), Ibn Sa'd (168/784-231/845), Xalifa ibn Xayyot (160/777-240/855), Imom Buxoriy (194/810-256/870) Ahmad ibn Yahyo Balazuriy (205/820-279/892), Ahmad ibn Is'hoq Ya'qubiy (vaf. 284/897), Abu Ja'far Tabariy (224/839-310/923), Muhammad Jahshiyoriy (vaf. 331/943), Abu-l-Hasan Movardiy (364/974-450/1058), Ibn Asir (555/1160-630/1234), Ibn Kasir (701/1301-774/1373), Ibn Xaldun (732/1332-808/1406) asarlarining yangi to'liq nashrlari tadqiqotga jalb yetildi³. Mazkur manbalarni tahlil yetishda mualliflarning diniy, siyosiy guruhlar, ijtimoiy tabaqalarga xayrixohligi alohida e'tiborga olindi. Turli muhitlarga mansub mualliflar tomonidan yaratilgan manbalar o'rtasidagi tafovutli ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali haqiqiy voqelikni tiklash, katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ilk arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi ko'p davrlar mobaynida dunyo tarixchilarining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu sohani o'rganishda ayniqsa, Rossiya islomshunoslarining hissasi katta. Akademik V.V. Bartold (1869-1930), A.A.Vasilyev (1867-1953), Ye.A.Belyayev (1895-1964), I.M.Filshtinskiy (1918-2013), P.A.Gryaznevich (1929-1997), A.G.Lundin (1929-1994), O.G. Bolshakov (1929-2020), A.B.Xalidov (1929-2001), S.M. Prozorov (1938-y.t.), M.B.Piotrovskiy (1944-y.t.), Y.A.Rezvan (1957-y.t.)⁴larning mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

³ Abu Yūsuf Ya'qūb ibn Ibrāhīm. Kitāb al-Kharāj. al-Qāhira: Dār al-Kitāb al-Islāmī, 1985, 242 ş.; Ibn Hishām. as-Sīrah al-Nabawīyyah. 4 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2001; Ibn Sa'd Muḥammad. al-Ṭabaqāt al-Kubrā. 9 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2001; Khalīfah ibn Khayyāt. at-Tārīkh. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 1995, 456 ş.; al-Bukhari, Muḥammad ibn Ismail. at-Tārīkh al-Kabīr. 9 m. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1998; al-Baladhuri. Ansab al-Ashraf. 2 m. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2000. 350 ş.; al-Balādhurī. Futūḥ al-Buldan. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 1998. 563 ş.; at-Ṭabarī. Tārīkh al-Umam wa al-Mulūk. 10 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2022; al-Māvardī, Abū al-Ḥasan. al-Aḥkām al-Sultāniyya: 2 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 2009; al-Māvardī, Abū al-Ḥasan. Qavānīn al-Vizāra va-Siyāsāt al-Malik. Bayrūt: Dār al-Ta'ā, 1989. 255 ş.; Ibn al-Athīr. al-Kāmil fi at-Tārīkh. 11 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 1999; Ibn Kathīr. al-Bidāyah va al-Nihāyah. 14 m. Bayrūt: Dār al-Kitāb al-'Arabī, 2002; Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2004. 480 ş.; Ibn Khaldūn. Tārīkh. 14 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2002.

⁴ Бартольд В. В. Халиф и султан // Работы по истории ислама и Арабского халифата (Bundan keyin: Том III). – М.: ГРВЛ, 2002. – С. 17-78; Бартольд В. В. Теократическая идея и светская власть в мусульманском государстве // Том III. – С. 303-319; Бартольд В. В. Эпоха Омейядов по новейшим исследованиям // Том III. – С. 532-536; Бартольд В. В. Христианский Восток и его значение для ислама // Том III. – С. 147-155; Васильев А.А. История Византийской империи (время до Крестовых походов). – СПб: Алтея, 1998. – 986 с.; Васильев А.А. Лекции по истории Византии. Время до Крестовых походов (до 1081 год). – Петроград: Я. Башмаков и К. 1917. – 355 с.; Васильев А.А. История Византии и крестоносцы. Эпоха Комнинов (1081-1184) и Ангелов (1185-1204). – Петербург: Академия, 1923. – 120 с.; Васильев А.А. История Византии. Латинское владычество на Востоке Эпоха Никейской и Латинской империй (1204-1261). – Петроград. Академия, 1923. – 78 с.; Васильев А.А. История Византии Падение Византии. Эпоха Палеологов (1261-1453). – Л.: Академия, 1925. – 206 с.; Беляев Е.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннем средневековье. – М.: Наука, 1966. – 279 с.; Беляев Е.А. Мусульманское сектанство [Исторические очерки]. – М.: ГРВЛ, 1957. –102 с.; Фильштинский И.М. История арабов и Халифата (750-1517 гг.) – М.: АСТ, 2006. – 383 с.; Фильштинский И.М. Халифат под властью Омейядов (661-750 гг.) – М.: Северо-принт, 2005. – 232 с.; Фильштинский И.М. Арабы и Халифат. – М.: Ломоносов, 2024. – 240 с.; Грязневич П.А. Формирование арабской народности раннего средневековья // Ислам. Религия, общество, государство (Bundan keyin: Ислам). – М.: ГРВЛ, 1984. – С. 132-144; Грязневич П.А. К вопросу о праве на верховную власть в мусульманской общине в раннем исламе // Ислам. 1984. – С. 161-174; Лундин А.Г. Происхождение угаритского алфавита. – М.: ГРВЛ, 1989; Лундин А.Г. Дешифровка

Shuningdek G'arb tadqiqotchilaridan Vilyam Myuir (1819-1905), Alfred fon Kremer (1828-1889), Tomas Arnold (1864-1930), Adam Mes (1869-1917), Leone Kaetani (1869-1935), G.E. fon Gryunebaum (1909-1972), V.M.Vott (1909-2006) va F. Donner (1945-y.t.) ning ilmiy ishlarida⁵ mavzuga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Sharq mamlakatlari tadqiqotchilari Sayid Amir Ali (1849-1928), Abdulvahob Najjor (1862-1941), Muhammad Xudariy (1872-1927), Hasan Ibrohim Hasan (1892-1968), Abdulmun'im Mojid (1921-1999), Muhammad Rizo (vaf. 1950), Mahmud Shokir (1932-1956), Akrom Ziyo Umariy (1942-y.t.) va Muhammad Sallobiy (1963-y.t.)lar o'z asarlarida⁶ islom tarixi, arab-musulmon madaniyati, shaharsozlik, arab xatining rivoji va arab istilolariga bag'ishlangan.

протосинайского письма. – М.: ГРВЛ, 1991; Лундин А.Г. Южно-арабская историческая надпись VI в. н. э. из Мариба // Эпиграфика Востока. IX. – М. Л.: АН СССР, 1954. – С. 3-23; Лундин А.Г. Названия и формы букв в семитских консонантных алфавитах // ВДИ. 1985, № 4. – С. 137-155; Большаков О.Г. История Халифата: в 4 томах. – М.: ГРВЛ, 1989-1998; Большаков О.Г. Средневековый город Ближнего Востока: VII-середина XIII в.: Социально-экономические отношения. – М.: ГРВЛ, 2001; Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М.: ГРВЛ, 1985; Халидов А.Б. Ислам и арабский язык // Ислам. Религия, общество, государство. – М.: ГРВЛ, 1984. – С. 69-75; Прозоров С. М. Хрестоматия по исламу. – М.: Наука, 1994. – Т. 1. – С. 50; ан-Наубахти, ал-Хасан Ибн Муса. Шиитские секты. – М.: ГРВЛ, 1973; Прозоров С. М. Арабская историческая литература в Ираке, Иране и Средней Азии (VII – середине X в.). – М.: ГРВЛ, 1980; Ислам: энциклопедический словарь / Отв. ред. С. М. Прозоров. – М.: ГРВЛ, 1991. – 315 с.; Прозоров С.М. Ислам. Историографические очерки. – М.: ГРВЛ, 1991; Пиотровский М.Б. Пророческое движение в Аравии в VII в. // Ислам. – С. 19-27; Пиотровский М.Б. Южная Аравия в раннее средневековье. Становление средневекового общества. – М.: ГРВЛ, 1985. – 224 с.; Пиотровский М.Б. Коранические сказания. – М.: ГРВЛ, 1991. – 219 с.; Резван Е.А. Коран и его мир. – СПб.: ГРВЛ, 2001.

⁵ Muir W. The Life of Mahomet and History of Islam, to the Era of the Hegira: With Introductory Chapters on the Original Sources for the Biography of Mahomet, and on the Pre-Islamite History of Arabia. London, 1858. 338 pp.; Muir W. Annals of the Early Caliphate: From Original Sources. London, 1883. 493 pp.; Muir W. The Caliphate: Its Rise, Decline and Fall. London, 1892. 624 pp.; Kremer A. Mittelsyrien und Damascus: geschichtliche, ethnografische und geografische Studien während eines Aufenthalts daselbst in den Jahren 1849, 1850 u. 1851. 257 pp.; Kremer A. Aegypten: Forschungen über Land und Volk während eines zehnjährigen Aufenthalts. Leipzig: Brockhaus, 1863. 266 pp.; Kremer A. Geschichte der herrschenden Ideen des Islams: der Gottesbegriff, die Prophetie und Staatsidee. Leipzig: Brockhaus, 1868. 471 pp.; Kremer A. Culturgeschichtliche Streifzüge auf dem Gebiete des Islams. Leipzig: Brockhaus, 1873. 77 pp.; Arnold Th.W. The Preaching of Islam: A History of the Propagation of the Muslim Faith. 2nd ed. Originally published in 1896. London: Constable. 467 pp.; Arnold Th.W. The Caliphate. With an additional chapter by Sylvia G. Haim. London: Routledge and Kegan Paul, 1864. 267 pp.; Arnold Th.W. Painting in Islam: A Study of the Place of Pictorial Art in Muslim Culture. Oxford: Clarendon Press, 1965. 159 pp.; Mez Adam. Die Renaissance des Islams. Heidelberg: Carl Winters Universitätsbuchhandlung, 1922. 492 pp.; Мец А. Мусульманский ренессанс. – М.: ГРВЛ, 1973. – 473 с.; Caetani L. Studio di storia orientale. – Milano, 1911. – 512 pp.; Caetani L. Annali dell'Islam. – Milano, 1905. – 740 pp.; Caetani L. Chronografia islamica. – Geuthner, 1912. – 692 pp.; von Grunebaum. Medieval Islam. A study in cultural orientation. Chicago. 1946. – 378 pp.; von Grunebaum. Kritik und Dichtkunst. Studien zur arabischen Literaturgeschichte. Wiesbaden. 1955. – 161 pp.; von Grunebaum. Classical Islam: A History, 600-1258. London. 1970. – 243 pp.; фон Грünebaum. Классический ислам. Очерк истории (600-1258). – М.: ГРВЛ, 1988. – 216 с.; Watt M. A History of Islamic Spain. New York: Routledge, 1965. 183 pp.; Watt M. Muhammad at Mecca. Oxford: Clarendon Press, 1953. 208 pp.; Watt M. Muhammad at Medina. Oxford: Clarendon Press, 1956. 552 pp.; Watt M. The Influence of Islam on Medieval Europe. Edinburgh: University Press, 1972. 125 pp.; Уотт У.М. Мусульманская Испания. – М.: Наука, 1976. – 220 с.; Уотт У.М. Мухаммад в Мекке. – СПб: Диля, 2006. – 272 с.; Уотт У.М. Мухаммад в Медине. – СПб: Диля, 2007. – 480 с.; Уотт У.М. Влияние ислама на средневековую Европу. – СПб: Диля, 2008. – 192 с.; Donner F. The Early Islamic Conquests. New York: Princeton University Press, 1977. 264 pp.; Donner F. The Formation of the Early Islamic State // Journal of the American Oriental Society, 1986. 120 pp.

⁶ Ameer A. A Short History of the Saracens. – London: Macmillan, 1889. 696 pp.; Ameer A. A critical examination of the life and teachings of Mohammed. – London: Williams and Norgate, 1873. 368 pp.; Ameer A. The Personal Law of the Mahommedans (According to All the Schools). – London: Williams and Norgate, 1880. 198 pp.; Ameer A. The Spirit of Islam. – London: Williams and Norgate, 1880 587 pp.; Ameer A. The Ethics of Islam. – London: Kessinger Publishing, 1893. 124 pp.; Ameer A. Islam. – London: Kessinger Publishing, 1906. 90 pp.; 'Abd al-Vahhāb al-Najjār. al-Khulafā' al-Rāshidūn. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 2003. 290 ş.; 'Abd al-Vahhāb al-Najjār. as-Sīrah al-Nabaviyyah. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, 1994. 400 ş.; al-Khudharī, Muḥammad. Nūr al-Yaqīn fī Sīrat

O‘zbekiston tarixnavisligidagi umumjahon tarixi sohasiga oid ishlar orasida ilk arab-musulmon davlatchiligi boshqaruv tizimining shakllanishi va uning tarkibiy qismlariga bevosita bag‘ishlangan maxsus tadqiqot uchramaydi. Professorlar M.A. Usmonov, U.Uvatov, A.A. Hasanov, Sh.Kamoliddinov, yosh tadqiqotchilardan M.Agzamova, F.Qushbayev, Z.Ziynatullayev, S.Ummataliyev, O.Sotvoldiyevlar ilmiy ishlarida tadqiqot mavzusi bo‘yicha muxtasar ma‘lumotlar zikr qilingan⁷.

Sayyidi al-Mursalīn. Bayrūt: al-Maktaba al-‘Ashriyya, 2000. 326 s.; al-Khudharī, Muḥammad. Ittām al-Vafā’ fi Sīrat al-Khulafā’. Bayrūt: Dār al-Qalam, 2024. – 408 s.; al-Khudharī, Muḥammad. al-Davla al-Umāviyya. Bayrūt: Dār al-Qalam, 2011. 586 s.; al-Khudharī, Muḥammad. al-Davla al-‘Abbāsiyya. Bayrūt: Dār al-Qalam, 2003. 482 s.; Ḥasan Ibrāhīm Ḥasan. Ta’rīkh al-Islām al-Siyāsī va al-Dīnī va al-Thaqāfi va al-Ijtimā’ī: 4 m. Bayrūt, 1996; Ḥasan Ibrāhīm Ḥasan va ‘Alī Ibrāhīm Ḥasan. Al-Nuzum al-Islāmiyya. Al-Qāhira, 1996. 659 s.; Ḥasan Ibrāhīm Ḥasan va Tāhā Aḥmad Sharaf. ‘Ubayd Allāh al-Mahdī. Al-Qāhira: Maktabat al-Nahḍa al-Miṣriyya, 1947. 371 s.; Ḥasan, ‘Alī Ibrāhīm. At-Tārīkh al-Islāmī al-‘Ām. Al-Qāhira: Maktabat al-Nahḍah al-Miṣriyyah, 1999. 614 s.; Ḥasan Ibrāhīm Ḥasan, Ahmad Šādiq Tanṭāwī. Tārīkh al-‘Uṣūr al-Vuṣṭā fi al-Sharq va al-Gharb. al-Qāhira: Maktabat al-Nahḍah al-Miṣriyyah, 1958. 230 s.; Majid, ‘Abd al-Mun‘im. Al-‘Atlas at-Tārīkhī li-l-‘Ālam al-Islāmī fi-l-‘Uṣūr al-Vuṣṭā. Al-Qāhira: Dār al-Fikr al-‘Arabī, 1960. 49 s.; Majid, Abdul Mun‘im. At-Tārīkh as-Siyāsī li-Duval al-‘Arabiyyah: ‘Uṣūr al-Jāhiliyyah va an-Nabaviyyah va al-Khulafā’ ar-Rāshidīn. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1982. 272 s.; Majid, Abdul Mun‘im. Muqaddimah li-Dirāsāt at-Tārīkh al-Islāmī. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1971. 106 s.; Majid, Abdul Mun‘im. At-Tārīkh as-Siyāsī li-Duval al-‘Arabiyyah: Al-‘Asr al-Umāviyy. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1998. 272 s.; Majid, Abdul Mun‘im. At-Tārīkh as-Siyāsī li-Duval al-‘Arabiyyah: Al-‘Asr al-‘Abbāsiyy al-Aval. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1984. 491 s.; Majid, Abdul Mun‘im. At-Tārīkh as-Siyāsī li-Duval al-‘Arabiyyah: Zuhūr al-Khilāfah al-Fāṭimiyyah va Suqūṭuhā fi Miṣr. Al-Qāhira: Dār al-Fikr al-‘Arabiyy, 1994. 475 s.; Majid, Abdul Mun‘im. Nuzūm al-Fāṭimiyyīn va Rusūmuhum fi Miṣr. 2 m. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1953-1955; Majid, Abdul Mun‘im. Tārīkh al-Ḥadārah al-Islāmiyyah fi-l-‘Uṣūr al-Vuṣṭā. Al-Qāhira: Maktabat al-Anjilu al-Miṣriyyah, 1992. 359 s.; Riḍā, Muḥammad. Abū Bakr aṣ-Šiddīq Aval al-Khulafā’ ar-Rāshidīn. Bayrūt: Dār al-Fikr, 1995. 250 s.; Riḍā, Muḥammad. Al-Fārūq ‘Umar ibn al-Khaṭṭāb Thānī al-Khulafā’ ar-Rāshidīn. Bayrūt: Dār al-Fikr, 1996. 300 s.; Riḍā, Muḥammad. As-Siyāsah al-Qaḍā’iyyah fi ‘Ahd ‘Umar ibn al-Khaṭṭāb va Šilatuhā bi-Vāqi’inā al-Mu‘āṣir. Bayrūt: Dār al-Fikr, 2002. 280 s.; Riḍā, Muḥammad. Dhū an-Nūrayn ‘Uthmān ibn ‘Affān al-Khulafā’ ath-Thālith. Bayrūt: Dār al-Fikr, 1997. 250 s.; Riḍā, Muḥammad. Al-Imām ‘Alī ibn Abī Ṭālib Karrama Allāh Vajhah Rābi’ al-Khulafā’ ar-Rāshidīn. Bayrūt: Dār al-Fikr, 1998. 320 s.; Šākīr, Maḥmūd. At-Tārīkh al-Islāmī. 22 m. Al-Qāhira: Dār al-Ma‘ārif, 1995-2000; Al-Umarī, Akram Ḍiyā’. As-Sīrah an-Nabaviyyah as-Šaḥīḥah. Al-Maḍīnah al-Munavarah: Maktabat al-‘Ulūm va-al-Ḥikmah, 1994. 728 s.; Al-Umarī, Akram Ḍiyā’. ‘Aṣr al-Khulafā’ ar-Rāshidīn. Ar-Riyād: Maktabat al-‘Ubaykān, 2001. 530 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. As-Sīrah an-Nabaviyyah: ‘Arḍ Vaqā’i’ va Taḥlīl Aḥḍāth. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2003. 800 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Abū Bakr as-Šiddīq: Shakhṣiyyatuhu va ‘Aṣruhu. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2001. 600 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. ‘Umar ibn al-Khaṭṭāb Raḍīya Allāhu ‘Anhu: Shakhṣiyyatuhu va ‘Aṣruhu. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2002. 720 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. ‘Uthmān ibn ‘Affān Raḍīya Allāhu ‘Anhu: Shakhṣiyyatuhu va ‘Aṣruhu. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2004. 800 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. ‘Alī ibn Abī Ṭālib Raḍīya Allāhu ‘Anhu: Shakhṣiyyatuhu va ‘Aṣruhu. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2004. 920 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Ad-Davlah al-Umāviyyah. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2005. 700 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Mu‘āviyah ibn Abī Sufyān: Shakhṣiyyatuhu va ‘Aṣruhu. Al-Qāhira: Dār al-Ma‘rifah, 2003. 600 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Fikr al-Khavārij va al-Shī‘ah fi Mīzān Ahl as-Sunnah va al-Jamā‘ah. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2009. 500 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Ishtihād al-Ḥusayn va Ma‘rakat Karbalā’. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2007. 300 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Khilāfat Amīr al-Mu‘minīn ‘Abd Allāh ibn Zubayr Raḍīya Allāhu ‘Anhu. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2005. 400 s.; Aṣ-Šallābī, Muḥammad. Ad-Davlah al-Fāṭimiyyah. Bayrūt: Dār al-Ma‘rifah, 2006. 550 s.

⁷ Ḥasanov A. Makka va Medina tarixi (qadimgi Arabiston tarixidan lavḥalar). – T.: Meḥnat, 1992. – 79 b.; Ḥasanov A. Mekka, Medina va verovaniya arabov nakānune vzniknoveniya islama, – T.: TashGIV, 1994. – 86 s.; Ḥasanov A. Qadimgi Arabiston. – T.: TIU, 1994. – 125 b.; Ḥasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom: I kitob. Joḥiliya asri. – T.: TIU, 2001; Islom tarixi darligi. – T.: TIU, 2008. – 256 b. (mualliflar jamoasi); Ḥasanov A. Lektsii po istorii rannego islama – T.: TIU, 2014. – 326 s.; Ḥasanov A. Ilk islom tarixidan maʼruzalalar / ŷuqʼv kʼllanma. – T.: Movarounnahr, 2017. – 376 b.; Usmonov M. Qurʼoni karim va janobi Rasullullohning amallari. – T.: Hup, 1992; Usmonov M. Muḥammad pайғамбар // Мулоқот. –1993. – № 5-6. – Б. 52; Agzamova M.M. Ibn Jarir at-Tabariyning “Tarix ar-rusul val-muluk” asari – islom tarixini oʻrganish boʻyicha muhim manba. Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Kushbayev F.Q. Paygʻambarlik risolatining Makka davri. Islomshunoslik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Ziynatullayev Z.I. VIII-XII asrlarda islomning Markaziy Osiyoga yoyilishi va boshqaruv tizimining oʻzgarishi. Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Ummataliyev S. Ahmad ibn Yahyo al-Balazuriyning “Futuh al-buldon” asarida Movarounnahr tarixining yoritilishi.

Ushbu dissertatsiya umumjahon tarixining uzviy va tarkibiy qismi bo‘lgan davr – ilk Arab-musulmon davlati tarixi va undagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy sohalarida diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi o‘zaro muvozanat hamda unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’siri masalalarini ilmiy tadqiq yetishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida bajarilgan A-1-051 – “III Renessans – Yangi O‘zbekiston” mavzusidagi, FZ 202002146 – “O‘zbekiston Islom san’ati – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi” shuningdek, “O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi kesimida” ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi VII-IX asrlarda ilk arab-musulmon davlatchiligi shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalar ta’sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

islom davlatchiligiga oid birlamchi manbalar tahlili asosida ularni tasniflash;
O‘rta asr tarixiy adabiyotlarida arab-musulmon davlatchiligi mavzusining aks etishi bo‘yicha ilmiy xulosalar berish;

zamonaviy tadqiqotlarda arab-musulmon davlatchiligi muammolarining yoritilishini qiyosiy o‘rganish;

Madinada musulmonlar jamoasidan imperiyaga – arab-musulmon davlatiga aylanish jarayoni va u bilan bog‘liq bo‘lgan tarkibiy o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish;

islomdan avvalgi davr arab jamiyati uchun batamom yangi bo‘lgan davlatchilik an’analarining shakllanish jarayonini ochib berish;

yangi institutlar paydo bo‘lishida Eron va Vizantiya imperiyalarining o‘rnini asoslash;

ichki ziddiyatlarning davlatchilik rivojiga ta’sirini baholash;

rahbarlik mavqelarining o‘zgarib borishi va uning nazariy hamda amaliy jihatlarini aniqlash;

davlat boshqaruvida shahar-poytaxt belgilanishi bilan bog‘liq jihatlarni ochib berish;

islom davlatchiligi boshqaruvida dunyoviy va diniy jarayonlarning o‘zaro muvozanatini baholash;

islomda soliq tizimi va uning davlat ijtimoiy-iqtisodiyotiga ta’sirini asoslash;

davlat rivojida harbiy tizimning mukammallashib borishi jarayonlari ochib berish;

arab-musulmon madaniyatining tashqi ta’sirlarga moslashishidagi o‘ziga xos jihatlarni ochib berish va mavzu yuzasidan ilmiy xulosalar, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida VII-IX asrlarda ilk arab-musulmon davlatchiligi shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’sirida diniylik va dunyoviylik prinsiplarining o‘zaro muvozanati belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini arab-musulmon davlatchiligining rivojlanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta’sir shakli tashkil etadi.

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Умматалиев С. Ислам тарихидан олтин саҳифалар (умавийлар даври). – Т.: Ўқитувчи, 2021. – 296 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda mantiqiylik, tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, muammoviy-maqсадli, kompleks yondashish, matnlarni kontent-analiz usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin vahiy to‘xtashi natijasida teokratik jarayon nihoyasiga yetdi va arab-musulmon davlatida hokimiyat taqsimlanishi an‘anasi Vizantiya hamda Sosoniylar imperiyalari boshqaruv tizimi ta‘sirida takomilashib, “خليفة” (*xalifa*), “وزير” (*vazir*), “والي” (*voliy*), “شرطي” (*shurtiy*), “ديوان” (*devon*) singari mustaqil institutlarga asos solinishi oqibatida ularning vazifalari belgilab berilgani dalillangan;

arab-musulmon hokimiyatining boshqaruv madaniyati yetarlicha taraqqiy etmagani sababli tashqi sivilizatsiyalardan o‘zlashtirilgan “ديوان” (*devon*) tizimiga mahalliy arboblarni jalb qilishi natijasida hisob-kitob ishlarni olib borish uchun tayinlangan xodimlar Eronda fors, Vizantiyada yunon, Misrda qibtiy tillarida olib borish omillari aniqlangan;

Xalifalik teokratik boshqaruv hisoblanmay, hokimiyatning meros qoldirilishi, diniy vazifalarning ulamolarga yuklanishi singari dunyoviy prinsiplarga asoslanganiga qaramay hukmdorlar o‘z hokimiyatini sakrallashtirish maqsadida “خليفة” (*xalifa*), “أمير المؤمنين” (*mu‘minlarning amiri*), “إمام” (*imom*), “خليفة الله” (*Allohning xalifasi*), “خليفة الرحمن” (*Rahmonning xalifasi*) kabi turli martabalarni olganliklari ilmiy asoslangan;

hozirda o‘zlarini “xalifa” (خليفة) deb iddao qilayotgan ba‘zi kimsalarning da‘volari sahobalar ijmosi (اجماع الصحابة) bilan qabul qilingan Payg‘ambar o‘rinbosarining “Qurayshdan”, “islomni birinchilardan bo‘lib qabul qilgan”, “Madinaga hijrat qilgan” hamda “Badr jangida qatnashgan” bo‘lishi shartlarining biror kishida topilmasligi sababidan ham asossiz ekani dalillangan;

musulmon davlatining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida dunyoviylik prinsiplari dastlabki davrlardan ustunlik kasb eta boshlagani xalifa Umar ibn Xattobning arab xristianlaridan bo‘lgan Banu Tag‘lib (بنو تغلب) qabilasining musulmon armiyasi tarkibida jang qilishga ruxsat bergani hamda ular uchun “جزية” (*jizya – jon solig‘i*) o‘rniga musulmonlardan olinadigan “زكاة” (*zakot*) ikki barobar to‘lashlarini joriy qilgani bilan asoslangan;

musulmonlarning Eron, Shom, Misr mamlakatlariga kirib borishlari hamda mazkur xududlarni nazoratda ushlab turish maqsadida ko‘ngilli jangchilar o‘rniga tashkil etilgan maosh oluvchi muntazam harbiy xizmat takomillashib, dengiz (أسطول) va quruqlikdagi (جيش) qo‘shinlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi va buning natijasida majburiy harbiy xizmat tizimining shakllanishi davlatning harbiy salohiyatini shiddat bilan oshib borishiga xizmat qilgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Islom tarixi bo‘yicha yozilgan manba va adabiyotlarda mualliflarning diniy firqa, ijtimoiy tabaqa va harbiy-diniy guruhlariga mansubligi ulardagi ma‘lumotlarning farqliligi sabablaridan hisoblanib, ularni qiyosiy o‘rganish haqiqiy voqelikni tiklashda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

tadqiq etilayotgan davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy jihatlarini yoritishdagi asosiy muammo tarixiy asarlarning faqat VIII-XI asrlarda, ya'ni davrga nisbatan kechroq yozilganligi, VII asr voqealari ularning shohidlari – roviylar orqali yetib kelgan og'zaki hikoyalar asosida bayon etilganligi, ushbu xabarlar aksariyat hollarda ulamolar va turli diniy firqa - guruh vakillari tomonidan jamlanganligi sababli ularga ortiqcha diniy va subyektiv talqin berilganligi dalillangan;

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin musulmon davlati hududining kengayishi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan sivilizatsiyalar bilan integratsiyasi natijasida jamoaviy davlatni teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o'zgarishlar ro'y berishi muqarrarligi aniqlangan;

arab-musulmon davlati ilk to'rt xalifalar davridayoq diniy sohadagi rivojlanishlar, diniy bilimlar hajmi va yo'nalishlarining murakkablashib borishi natijasida mutaxassislar guruhlarining shakllanib, dunyoviy va diniy sohalarning amalda ajralishi yuz berganligi isbotlangan;

hozirgi paytda xalifalik yoki islomiy davlat tuzish maqsadida yurgan ba'zi guruhlarining iddaolari diniy va tarixiy jihatdan noto'g'ri ekanligi, haqiqiy xalifa saylash uchun Muhammad (s.a.v.) shaxsiyati hozir bo'lishi shartligi asosida ilmiy dalillangan;

Umaviylar davlati Xulafoi roshidun davrida yuz bergan jarayonlarning mantiqiy nihoyasi sifatida maydonga kelib, jamoachilikdan davlatchilikka o'tib, ma'muriy islohotlar o'tkazishishi natijasida xalifa lavozimi nasliy merosga aylantirilganiga doir tarixiy qaydlar qiyosiy tahlili natijasida davlat hayotida diniylikdan dunyoviylikning to'liq ustuvorligi prinsipi namoyon bo'lgani isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, birlamchi manbalar mualliflari Abu Yusuf, Muhammad ibn Umar Voqidiy, Ibn Hishom, Ibn Sa'd, Xalifa ibn Xayyot, Imom Buxoriy, Ahmad ibn Yahyo Balazuriy, Ahmad ibn Is'hoq Ya'qubiy, Abu Ja'far Tabariy, Muhammad Jahshiyoriy, Abu-l-Hasan Movardiy, Ibn Asir, Ibn Kasir kabilarga asoslanilgani va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif-mulohazalar islom tarixi, manbashunosligi, siyosat va davlat boshqaruvi kabi sohalarga oid istiqbolli ilmiy tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Islom tarixini o'rganishda, tarixiy bilimlarni mustahkamlashda, islom tarixini ilmiy asosda o'rganishda, tarixiy faktlar bilan boyitish va yangilashda, shu bilan bir qatorda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlarni yaratish borasidagi davlat dasturlarini bajarishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arab-musulmon davlatchiligining shakllanishi va unga tashqi sivilizatsiyalarning ta'sirini tadqiq etishga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, natija va takliflar asosida:

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin vahiy to‘xtashi natijasida teokratik jarayon nihoyasiga yetdi va arab-musulmon davlatida hokimiyat taqsimlanishi an’anasi Vizantiya hamda Sosoniylar imperiyalari boshqaruv tizimi ta’sirida takomillashib, “خليفة” (*xalifa*), “وزير” (*vazir*), “والي” (*voliy*), “شرطي” (*shurtiy*), “ديوان” (*devon*) singari mustaqil institutlarga asos solinishi oqibatida ularning vazifalari belgilab berilgani dalillanganiga doir ilmiy xulosalar buyurtma asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr qilingan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi” ensiklopediyasi mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 14-iyundagi 02/252 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy jamoatchilikka arab-musulmon davlatchiligi rivojida Vizantiya va Sosoniylar imperiyalari an’analari ta’siri borasidagi yangi xulosalarning yetib borishiga xizmat qilgan;

arab-musulmon hokimiyatining boshqaruv madaniyati yetarlicha taraqqiy etmagani sababli tashqi sivilizatsiyalardan o‘zlashtirilgan “ديوان” (*devon*) tizimiga mahalliy arboblarni jalb qilinishi natijasida hisob-kitob ishlarni yuritish uchun tayinlangan xodimlar Eronda fors, Vizantiyada yunon, Misrda qibtiy tillarida olib borish omillari aniqlanganiga oid ilmiy xulosalardan “O‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi (Arab mamakatlari)” nomli o‘quv adabiyoti mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i asosida berilgan 138177 sonli nashr ma’lumotnomasi). Natijada, O‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi (Arab mamakatlari) fanini o‘qitishda nazariy va amaliy ishlanmalar, o‘quv-metodik tavsiyalar mazmuni boyitishga xizmat qilgan va asosiy adabiyot sifatida Oliy ta’lim tizimida malakaliy muxataxsis kadrlar tayyorlashda foydalanilgan;

Xalifalik teokratik boshqaruv hisoblanmay, hokimiyatning meros qoldirilishi, diniy vazifalarning ulamolarga yuklanishi singari dunyoviy prinsiplarga asoslanganiga qaramay hukmdorlar o‘z hokimiyatini sakrallashtirish maqsadida “خليفة” (*xalifa*), “أمير المؤمنين” (*mu’minlarning amiri*), “إمام” (*imom*), “خليفة الله” (*Allohning xalifasi*), “خليفة الرحمن” (*Rahmonning xalifasi*) kabi turli martabalarni olganliklari ilmiy asoslanganiga doir ilmiy xulosalar buyurtma asosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus islom ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Islom tarixi”, “Dinshunoslik” kabi fanlardan o‘quv adabiyotlar mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2024-yil 4-iyuldagi 02-02/2044 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, professor-o‘qituvchilar va talabalarga xalifalik institutining paydo bo‘lishi, saylov usullari haqidagi ma’lumotlarni yetkazishga erishilgan;

hozirda o‘zlarini “xalifa” (خليفة) deb iddao qilayotgan ba’zi kimsalarning da’volari sahobalar ijmosi (إجماع الصحابة) bilan qabul qilingan Payg‘ambar o‘rinbosarining “Qurayshdan”, “islomni birinchilardan bo‘lib qabul qilgan”, “Madinaga hijrat qilgan” hamda “Badr jangida qatnashgan” bo‘lishi shartlarining biror kishida topilmasligi sababidan ham asossiz ekani dalillanganiga doir ilmiy

xulosalar buyurtma asosida “Diniy ma’rifiy va ijtimoiy-ma’naviy soha targ‘ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug‘ati”, “Diniy ma’rifiy suhbatlar” nomli qo‘llanmalari mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 3-oktyabrdagi 02-03/2466 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy-diniy muhit barqarorligi, aholi, ayniqsa, yoshlarni din niqobi ostidagi turli buzg‘unchi oqimlarning tahdidlaridan ogoh etishga xizmat qilgan;

musulmon davlatining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida dunyoviylik prinsiplari dastlabki davrlardan ustunlik kasb eta boshlagani xalifa Umar ibn Xattobning arab xristianlaridan bo‘lgan Banu Tag‘lib (بنو تغلب) qabilasining musulmon armiyasi tarkibida jang qilishga ruxsat bergani hamda ular uchun “جزية” (jizya – jon solig‘i) o‘rniga musulmonlardan olinadigan “زكاة” (zakot) ikki barobar to‘lashlarini joriy qilgani bilan asoslanganiga doir ilmiy xulosalar buyurtma asosida “Islomning Markaziy Osiyoga yoyilishi: Movarounnahrda diniy-ma’naviy va ilmiy madaniy markazlarning shakllanishi va rivojlanishi” loyihasi doirasida tayyorlangan “Movarounnahr ilmiy markazlar” albom-kitob mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2024-yil 11-noyabrdagi №06-07/742/1 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, arab-musulmon davlatchiligi rivojiga tashqi sivilizatsiyalar, ya’ni Vizantiya va Sosoniylar imperiyalarining ta’sirini aniqlashga erishilgan.

musulmonlarning Eron, Shom, Misr mamlakatlariga kirib borishlari hamda mazkur hududlarni nazoratda ushlab turish maqsadida ko‘ngilli jangchilar o‘rniga tashkil etilgan maosh oluvchi muntazam harbiy xizmat takomillashib, dengiz (أسطول) va quruqlikdagi (جيش) qo‘shinlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi va buning natijasida majburiy harbiy xizmat tizimining shakllanishi davlatning harbiy salohiyatini shiddat bilan oshib borishiga xizmat qilgani aniqlanganiga doir ilmiy xulosalardan buyurtma asosida “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga berilgan “Tarixiy savol: Movarounnahrda ilk islomiy ta’limotlar” va “Tarixning bir lahzası: Misrda hukmronlik qilgan turkiy sulolalar” mavzusidagi ko‘rsatuvlarda ishtirok etilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2024 yil 26 sentyabrdagi 06-28-895-son ma’lumotnomasi). Natijada, islom davlatchiligining Movarounnahr diyoriga ta’siri, islom olamidagi buyuk shaxslar va ularning ziyoratgohlari hamda Misr, Shom o‘lkalarida hukmronlik qilgan turkiy (o‘zbek) sulolalari haqida ilmiy xulosalar berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada jumladan, 3 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shulardan 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 243, umumiy hajmi 279 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, dissertatsiya tadqiqotining usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Arab-musulmon davlatchiligi tarixini o‘rganishning ilmiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobning *“Islom davlatchiligi muammolarining birlamchi manbalarda aks etishi”* nomli birinchi paragrafida tadqiqot davriga zamondosh bo‘lgan roviylar, tarixchilar va ularning asarlari haqida so‘z boradi.

Ilmiy ish obyektni tashkil etgan mazkur davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy jihatlarini yoritishdagi asosiy muammo tarixiy asarlarning VIII-XI asrlarda, ya‘ni davrga nisbatan kechroq yozilganligidadir. VII asr voqealari ularning shohidlari – roviylar orqali yetib kelgan og‘zaki hikoyalar asosida bayon etiladi. Mazkur xabarlar aksariyat hollarda ulamolar va turli diniy firqa - guruh vakillari tomonidan jamlanganligi sababli ularga ortiqcha diniy va subyektiv talqin berilgan.

Ilk islom tarixini yaxlit holda o‘z ichiga olgan manbalarning tahlil etishda ularning mualliflari qaysi diniy guruhlar, ijtimoiy tabaqalarga tegishli ekanligiga alohida e‘tibor berish zarur. Chunki turli muhitlar (murji‘iy (مرجعي), umaviy (أموي), shia (شيعة), abbosiy (عباسي), xorijiy (خارجي) va boshqa harbiy-diniy guruhlar)ga ga mansub mualliflar tomonidan yaratilgan manbalar o‘rtasidagi tafovutli ma‘lumotlarni qiyosiy o‘rganish haqiqiy voqelikni tiklashda katta ahamiyatga egadir.

Manbalar guruhi son jihatidan ham, ularda jamlangan materiallarni to‘kisligi ham ahamiyatlidir. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, aksariyat asarlar IX-XI asrlarda yozilgan bo‘lib, ularda aks ettirilgan VII asr voqealari fath yurishlari ishtirokchilarining og‘zaki hikoyalari orqali bayon etilgan. VIII asrda ushbu hikoyalarga adabiy ishlov berilib yozilgan, ammo birinchi an‘anaviy yozuvchilarning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ammo mazkur asarlar keyingi davr tarixchilari uchun muhim manba sifatida xizmat qildi.

Arab adabiyotining yana bir janri *“as-Siyra an-Nabaviyya”* (السيرة النبوية) – Muhammad (s.a.v.) hayot yo‘lini o‘rganish haqida bo‘lib, o‘rta asrlarda bu soha yetakchi o‘rinni egallagan. Ulamolar payg‘ambarlik tarixi va sunnatni o‘rganish, Qur‘oni karim va hadisi sharifdan keyin uchinchi o‘rinda turadigan manba sifatida

ta'riflaydilar. Siyra janrini islom tarixi va Payg'ambar (s.a.v.) hayoti yoritilgan diniy manba sifatida o'rganildi, lekin tarixiy manba sifatida kam tadqiq etilgan.

Mazkur janr bo'yicha yozilgan kitoblar ichida Ibn Is'hoqning "siyra"si shoh asar deyish mumkin. Uning asari va u haqidagi ma'lumotlar bizgacha Ibn Hishom asari orqali yetib kelgan.

Ibn Hishom Ibn Is'hoqning asarini tartibga soladi va bu jarayonda ba'zi qismlarni olib tashlaydi. Ularning o'rniga juda ustalik bilan ayrim qo'shimcha va sharhlarni kiritadi⁸. Ibn Hishom tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlar Ibn Is'hoqning shaxsiyati va asariga nisbatan ishonchsizlik tug'dirmaydi, balki, asarni yanada sayqallanib o'qimishli bo'lishiga xizmat qiladi. Ibn Is'hoq 85/704-yili Madina shahrida tug'ilgan. Uning otasi va ikki amakisi "axboriyalar" ("xabar" yetkazuvchilar)dan bo'lgan⁹. Avvaliga Ibn Is'hoq ham xabar va hadislarni rivoyat qilish bilan shug'ullandi. Keyinchalik, Zuhriyning¹⁰ shogirdi sifatida shuhrat qozondi. Tarixchi Ibn Xallikon (608/1211-681/1282) o'zining o'rta asr mualliflari haqida biografik ma'lumotlar beruvchi "وفيات الأعيان و أنباء أبناء الزمان" ("Mashhurlarning vafoti va zamon farzandlari haqida xabarlar") asarida Ibn Is'hoqni hadis ilmining bilimdoni va mag'oziyalar haqida ma'lumotlar to'plagan ilk tarixchi sifatida e'tirof etadi¹¹. Muhammad Ismoil Buxoriy "التاريخ الكبير" (Katta tarix) asarida "Kim mag'oziyalar (Payg'ambar (s.a.v.) qatnashgan urushlar) haqida to'liq bilishni istasa Ibn Is'hoqqa murojaat qilsin", deb ta'kidlaydi¹².

Muhammad (s.a.v.) hayoti, faoliyati va ilk islom davri tarixini mukammal yoritish maqsadida siyra yo'nalishidagi asarlar bilan bir qatorda tabaqot¹³ sohasi ham rivojlandi. Arab tarixshunosligida tabaqot biografik janrning maxsus tarmog'ini tashkil etib, ularda Payg'ambar (s.a.v.)dan boshlab, ahli bayt, sahobalar, tobeinlar, taba'a tobeinlarning ismi shariflari yillar ketma-ketligida tartiblab joylashtirilgan. Bunda hududiy tamoyilga ham rioya qilingan – ma'lumotlar shaharlar, alohida mavzalar va xalifalikni tashkil etgan viloyatlar (ba'zan butun islom dunyosi) bo'yicha taqsimlangan.

Islomning dastlabki davrida tabaqot janri asosan hadis bilimdonlari, faqihlarga bag'ishlangan va shu orqali hadis ilmi ehtiyojlarini qondirishga harakat qilingan. Tabaqotlar *isnodning* haqqoniylik darajasini aniqlashda ensiklopediya vazifasini bajargan. Biroq madaniy ehtiyoj va ilm-fan taraqqiyoti natijasida keyinchalik turli kasb va darajadagi shaxslarning (shoirilar, adiblar, kotiblar, vazirlar, tilshunoslar, tabiblar, donishmandlar, va'zxonlar, qorilar, faqihlar, sufiylar va b.) avlodlarini xronologik tartibdagi tabaqotlarini yaratishga ehtiyoj sezilgan. Shu bois tabaqotlar keng yoyilgan.

⁸ Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII-XI в.). – М., 1983. – С. 43.

⁹ Xabar – biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi axborot, darak bildirish. Islom tarixshunosligining qadimgi uslublaridan bo'lgan biror voqea va xodisa haqidagi xabarni yetkazuvchi.

¹⁰ Abu Bakr Muhammad ibn Muslim Zuhriy. Ibn Shihob Zuhriy nomi bilan mashhur (671-741). Xadis va sunnatlarni birinchi bo'lib yozma qayd etgan. Buyuk xofiz, faqih va tobe'inlardan. Uning musnadidan 2200 xadis o'rin olgan (Ibn Khallikān. Vafayāt al-A'yān va Anbā' Abnā' al-Zamān. 8 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-Ilmiyyah, 1996. – M. 4. – S. 177 (Bundan keyin: Ibn Khallikān. Vafayāt)).

¹¹ Ibn Khallikān. Vafayāt – M. 4. – S. 275.

¹² al-Bukhari, Muhammad ibn Ismail. at-Tārīkh al-Kabīr. 9 m. Beirut: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 1998. – M.1. – S.40 (Bundan keyin: al-Bukhari. at-Tārīkh).

¹³ Tabaqot – ma'lum vaqt oralig'ida yashagan shaxslar, "avlodlar tarjimai holi".

Islom tarixini birlamchi manbalar orqali tadqiq etishda ushbu asarlar mualliflarining diniy e'tiqodi, siyosiy-diniy mafkurasi, egallagan ijtimoiy mavqeyini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab asarlar mazmuniga muallif o'zi sezmaganda u yoki bu firqaning fikri singdirilgan. Bu esa o'z navbatida asar mazmuniga va keyingi tadqiqotchilar fikrlariga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

“O'rta asr tarixiy adabiyotlarida arab-musulmon davlatchiligi mavzusining tahlili” nomli ikkinchi paragrafda tadqiqotga jalb etilgan o'rta asrlarda yozilgan adabiyotlarni tahlil etishda asarlarning haqqoniyligi, mualliflarning diniy-siyosiy dunyoqarashiga alohida e'tibor qaratilib, kategoriyalarga taqsimlab chiqilgan.

Islomning Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqishi natijasida uning tarixi va mohiyatini aniq yoritib berishga bo'lgan harakat kuchaydi. Mualliflarning u yoki bu diniy oqimga mansubligi, uning aholi qatlamidagi mavqeyi muhim o'rin tutdi. Islom dinining tarqalishi bilan zamondosh bo'lgan mualliflarning asarlarida o'sha davrning o'ziga xos jihatlari aks etdi. Jumladan, shialik va xorijiylikning kuchayishi, mihna voqealari, islomdagi g'oyaviy bo'linishlar asarlarning asosiy mavzusiga aylandi. Ushbu kayfiyat islom tarixi bo'yicha ta'rif etilgan asarlarda ham o'z aksini topdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'rta asrlarda bitilgan tarixiy asarlarda keskin kayfiyat sezilib turadi.

Shu bilan birga, islom tarixi yoki shaxslar tarixi bilan bog'liq asarlar ko'paysada, ularning obyektivligi shubha ostida qoladi. Sultonlar, qozilar va shu kabi zodagonlarning buyurtmalari bilan yoki ularga tilyog'lamalik qilish maqsadida ham kitoblar yozila boshladi. Shunday ekan, kelgusi tadqiqotlar uchun o'rta asr mualliflari va ularning asarlarini, hamda ularning qaysi diniy, siyosiy va mafkuraviy rag'bat yoki tazyiqlar ostida yozilganligi bilish muhimdir.

Tadqiqotga jalb etilgan adabiyotlarning aksariyatini tarixiy asarlar tashkil etadi. Shunday asar mualliflaridan biri Xalifa ibn Xayyot (160/777-240/855)¹⁴ bo'lib, uning “*Tarix*” va “*Tabaqot*” asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning ilmiy biografiyasi ancha boy bo'lib, u ilmiy oilada katta bo'lgan. Ibn Xayyotning o'zi rivoyat qilgan yettita hadis Imom Buxoriyning hadislar to'plamiga kiritilgan¹⁵. Agar Imom Buxoriy Xalifa ibn Xayyotning rivoyat qilgan hadislarini o'z jome'iga kiritgan ekan, u taqdim etgan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi yuqoriligiga shubha yo'q.

Xalifa ibn Xayyot “*Tarix*” asarida o'zigacha yetib kelgan manbalardan unumli foydalangan va asarni yozishda ma'lumotlarni alohida tartiblash tamoyiliga amal qilgan. Bunday yondashuv avvalgi mualliflarning ishlarida uchramaydi. U asarda urushlarda vafot etgan shaxslarning ro'yxatini keltiradi va tarixiy joy nomlarini batafsil tasniflaydi. Shuningdek, hijriy yil hisobi bo'yicha xronologik ketma-ketlik tartibida voqea-hodisalarni ochib beradi. Xalifalar davrida “*omil*”, “*voliy*”, “*qozil*” kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan amaldorlar haqidagi ma'lumotlar izchillik bilan tuzib chiqilgan. Muallif “*shurta*” boshliqlari, “*baytu-l-mol*”, “*devon*” sohiblari va

¹⁴ “عصفر” – خليفة بن خياط بن أبي هبيرة الأخباري العصفري (o'zb - safora, rus - сафлор, ingl - safflower o'simligi) tijorati bilan shug'ullanganligi uchun shunday atalgan.

¹⁵ al-Bukhari. at-Tārikh. – M.1. – S. 229.

boshqa davlat boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatchilarning tarixi bilan alohida shug‘ullangan.

Tarixiy ma‘lumotlarning haqqoniyligi avvalo muallifning voqea-hodisalarga xolis yondashuvi va ularni o‘zi guvoh bo‘lganligi bilan belgilanadi. Mana shunday mualliflardan biri tarixchi, geograf va sayohatchi Ahmad ibn Is‘hoq Ya‘qubiy (vaf. 284/905)dir. U Bag‘dodda tug‘ilgan va shialik oqimining imomiylik mazhabi vakili bo‘lgan. Oilasi kelib chiqishi jihatdan mavoliylar ya‘ni islomni qabul qilgan ajam xalqlaridan edi¹⁶. Is‘hoq Ya‘qubiy Abbosiylar davrida devonxonada kotibi lavozimida ishlaganligi bois Armaniston, Xuroson, Misrda xizmat safarlarida bo‘lgan va safar mobaynida ushbu mintaqalarning geografiyasi hamda tarixini o‘rgangan. Natijada “كتاب التاريخ” (Tarix kitobi) va “كتاب البلدان” (Mamlakatlar haqida kitob) asarlari yuzaga kelgan¹⁷.

Islom tarixini to‘laqonli tadqiq etishda Abu Ja‘far Tabariy (224/839-310/923)ning “*Tarix*” asarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Alloma Tabariston poytaxti Omul shahrida forsiy oilada tavallud topgan. U ilm izlab Ray, Bag‘dod, Kufa, Basra, Fustot shaharlariga borgan. U tarix, tafsir, fiqh va hadis ilmlari bilimdoni bo‘lgan. U mufassirlar imomi martabasini olgan.

Uning Payg‘ambarlar va podshohlar tarixiga bag‘ishlangan “*Tarix*” asari mashhur¹⁸. Asar “تاريخ الطبري” (“Tabariy tarixi”) yoki “تاريخ الأمم والملوك” (“Xalqlar va podshohlar tarixi”) yoki “تاريخ الرسل والملوك” (“Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi”) tarzida talqin etiladi.

Tabariy o‘z asarini yozishda bir qancha o‘zidan oldin o‘tgan tarixchilarning asarlaridan unumli foydalangan. Jumladan, Sayf ibn Tamimiy, Abu Mixnaf, Madoiniy, Ibn Shabba, Voqidiy, Nasr Ibn Mazohim, Abu Ma‘shar Sinadiy, Ibn Is‘hoq va boshqa bir qator tarixchilar¹⁹ni sanash mumkin.

¹⁶ Шаниязов К.К. ал-Я‘кубий – как историк арабского халифата. Автореф. ... кан.ист.наук. – Ташкент. 1996. – С. 21.

¹⁷ al-Ya‘qūbī. at-Tārīkh. 2 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2000.

¹⁸ at-Tabarī. Tārīkh al-Umam va al-Mulūk. 10 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2022. (Bundan keyin: at-Tabarī).

¹⁹ Sayf ibn Umar Asadiy Tamimiy (vaf. 170/715) – arab tarixchisi. Bag‘dodda yashab o‘tgan. U “*Jamal*”, “*al-Futuhu-l-kabir*” va “*ar-Ridda*” nomli asarlar muallifi. Tamimiy banu Tamim qabilasidan bo‘lganligi bois voqealarni asabiya (qabilachilik) g‘oyalari asosida yoritib, o‘z qabilasiga yon bosganligi uchun muhaddislar tomonidan uning rivoyatlari qabul qilinmagan. Ammo, u voqea-hodisalarning ustalik va izchillik bilan tasvirlab bera olish qobiliyatiga ega bo‘lganligi, ba‘zi kollarida batafsil ma‘lumotlarni faqat o‘zigina keltirganligi uchun tarixchilar e‘tiborini qozongan; Abu Mixnaf Lut ibn Yahyo Azdiy (vaf. 157/774) – Kufalik bo‘lib shialikka moilligi kuchli edi. Tabariy yurishlarning boshlanishini bayon etishda Abu Mixnafning “*Futuhu-sh-Shom va-l-Iroq*” asarlaridan foydalangan; Ali ibn Muhammad Madoiniy (134/752 – 224/839) tarixchi va adabiyotshunos. Basrada tug‘ilgan, Madoinda yashab “*al-Madoiniy*” kuniyasini olgan va Bag‘dodda vafot etgan. U arab yurishlari, Payg‘ambar (s.a.v.) siyrati, xalifalar tarixi va shoirlar haqida ko‘plab ma‘lumotlar yiqqan. Axboriylarning ustozlari deya talqin etilgan, xalifalar tarixi bo‘yicha ko‘plab asarlar bitgan. Tabariy “*Jamal*” va “*Siffin*” voqealari haqidagi ma‘lumotlarni Madoiniydan keltirgan; Voqidiy Muhammad ibn Umar (129/747 – 207/822) ilk tarixchilardan. Madinada tug‘ilgan va qozilik ishlari bilan Bag‘dodga ko‘chib kelgan va u yerda vafot etgan. Uning asarlari: “*al-Mag‘oziy*”, “*Fath Ifriqiya*”, “*Fathu-l-ajam*”, “*Fathu Misr va-l-Iskandariya*” va “*Fathu-sh-Shom*”. Tabariy xalifa Usmon ibn Affoning o‘ldirilishi tarixini asosan Voqidiyning ma‘lumotlaridan olgan va uni Sayf ibn Umar, Umar ibn Shabba va Ibn Is‘hoq xabarlar bilan boyitgan (Sulamiy, Muhammad ibn Somil. Manhaj kitabati-t-tarixi-l-islomiy. – ar-Riyod: Doru ibn Javziy, 2008. – 552 s. –B. 444); Nasr ibn Mazohim (vaf. 212/828) kufalik bo‘lib, shialikka mayli kuchli bo‘lgan. Uni muhaddislar e‘tiqodi va xotirasining zaifligi bois qattiq tanqid ostiga olganlar (Zahabiy. Miyyon. – Ş. 253-254); Abu Ma‘shar Sinadiy Najih ibn Abdurahmon (vaf. 170/787) faqih, muhaddis va tarixchi. Madinada yashagan va Bag‘dodda vafot etgan. U “*Kitobul-mag‘oziy*” asarini yozgan. Tabariy haj amirlari, urushlar, jangchilar, mintaqa hokimlari haqidagi ma‘lumotlarni ushbu tarixchidan olgan.

Ali Mas'udiy ilk o'rta asrlarning eng yirik tarixchisi va geografi sifatida tan olinadi. U yozgan asarlar soni o'ttiz oltitani tashkil etib, hozirgi kungacha uning ikkita "مروج الذهب ومعادن الجوهر" ("Oltin konlari va javohir ma'danlar") va "التنبيه والإشراف" ("Ogohlantirish va nazorat") asarlari yetib kelgan. Zahabiyning ta'kidlashicha, Ali Mas'udiyning "*Muruju-z-zahab*" asarining o'zi 30 jilddan iborat bo'lib, Xulafoi roshidun davrini aks ettiradi. Lekin asarning faqatgina bir jildi saqlanib qolgan. Ibn Xaldun allomani tarixchilarning suyanchig'i va yo'l boshchisi, deb ataydi. Fransuz tarixchilari esa uni "*Arab Gerodoti*" deb nomlaganlar²⁰. Ayniqsa, "*Muruju-z-zahab*" asari britaniyalik sharqshunos olim X.A.Gibb tomonidan yuksak baholanib, "*arab tilida bundan ahamiyatli asar*" o'rta asrlarda yaratilmaganligi e'tirof etiladi²¹. Aslida, tarixnavislik Ali Mas'udiy yashagan Abbosiylar davridagi intellektual faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri edi. Haqiqatan ham uning yozgan asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Jaloliddin Abu-l-Fazl Abdurahmon Suyutiy (845/1445-911/1505) shofi'iylik mazhabi fiqhshunos olimlaridan biri bo'lib, imom, mufassir, tarixchi, adabiyotshunos edi. Onasi uni kitoblar orasida tuqqanligi bois, unga "ابن الكتب" (Kitoblar bolasi) kuniyasi berilgan²².

Abdurahmon Suyutiy Mamluklar davrida yashagan va o'zining keskin qarashlari bilan ularni sergaklantirib turgan. U sultonlar bilan uchrashganda o'zini ilm kishisi sifatida tutar, suhbatda esa ularning xulq-atvorlarini tanqid qilar edi. Mamluk sultoni Ashrof Qaytboy (hukm. 872/1468-901/1496)ga uzun salla kiyganligi uchun tanbeh bergan. Sulton Tumanboy (hukm. 922/1516-923/1517) allomani joniga qasd qilishga harakat qilgan. Shu bois, Abdurahmon Suyutiy sulton taxtdan ag'darilguncha qochqinlikda yurgan²³.

Allomaning aksariyat asarlari hayotligidayoq G'arb va Sharqda mashhur bo'lgan. U asarlarni favqulodda tez va sifatli yozish iqtidoriga ega edi. Abdurahmon Suyutiyning shogirdi Ibn Iyyosning ta'kidlashicha, uning yozgan asarlari 600 dan ziyod bo'lgan. Mazkur asarlar tafsir, fiqh, hadis, usul, nahv, balog'at, tarix, tabaqot, tasavvuf va adabiyot ilmlarini qamrab olgan²⁴.

Abu-l-Hasan Movardiy²⁵ (364/974-450/1058) taniqli musulmon mutafakkiri va shofi'iylik mazhabi yetakchilaridan. Abbosiy xalifalar Qodir Billoh (335/947-422/1031, hukm. 381/992-422/1031), Qoim Biamrilloh (422/1001-467/1075, hukm. 422/1031-467/1075) davrida "*qozi-l-quzot*" – bosh qozi va elchilik lavozimlarini egallagan. Movardiy haqida ba'zi tarixchilar uning xalifa saroyida egallagan mavqeyi tufayli uning ma'lumotlariga shubha bilan qarasarlar, shogirdlaridan Xatib Bag'dodiy uning qoldirgan xabarlarini obyektivligiga ishonch bildiradi.

Siyra, mag'oziy, tarix va tabaqot kabi asarlar bilan birga "*Fihrist*" (الفهرست) – "Mundarija" yo'nalishida ham asarlar yozila boshlandi. Fihrist bibliografik

²⁰ Миккульский Д. В. Арабский Геродот. – М.: Алетея, 1998. – С. 18.

²¹ Гибб Х.А. Арабская литература (классический период). – М.: ГРБЛ, 1960. – С. 59.

²² Az-Zirikli, Khayr al-Din. Al-I'lam. 8 m. Bayrut: Dar al-'Ilm li-al-Malāyīn, 1980. – M.3. – §. 301.

²³ Ad-Dāvūdī, Shams ad-Dīn. Tarjamah al-'Allāmah as-Suyūfī. Al-Qāhirah: Dar al-Ma'ārif, 2010. – §. 109.

²⁴ Ibn Iyās, Ahmad ibn Iyās. Tārīkh Miṣr al-Mashhūr bi-Badā'i' az-Zuhūr fi Vaqā'i' ad-Duhūr. 4 m. Al-Qāhirah: Dar al-Kutub, 1968. – §. 26.

²⁵ "Movardiy" kuniyasi uning otasi atirgul suvi (ماء الورد) sotganligi sababli berilgan.

xarakterga ega asar bo‘lib, unga Bog‘dodlik Varroq (kitobfurush) Ibn Nadim (vaf. 384/994) asos soldi²⁶.

Ibn Asir asosan hadis, tabaqot janrida ijod qilgan bo‘lsada, tarix bo‘yicha yozgan asarlari uni mashhur qildi. Uning sakkiz jildli “*al-Komil fi-t-tarix*” (الكامل في التاريخ) – “Komil tarix” asari umumiy tarix bo‘yicha solnoma tarzida yozilgan. Asar “dunyo yaratilishi” dan boshlab, alloma yashagan davrni o‘z ichiga olgan.

Shamsiddin Zahabiy yozgan asarlarining mashhuri va kattasi bo‘lgan “*تاريخ الإسلام ووفيات المشاهير والأعلام*” (“Islom tarixi, mashhur va buyuk shaxslarning vafotlari”) asari musulmon tarixchilari tomonidan tuzilgan eng muhim ulkan qomusiy kitoblardan biri hisoblanib, 1/622-699/1300-yilgacha bo‘lgan tarixni o‘z ichiga oladi.

“*Zamonaviy tadqiqotlarda arab-musulmon davlatchiligi muammolarining yoritilishi*” nomli uchinchi paragrafda arab-musulmon davlatchiligini o‘rgangan zamonaviy tadqiqotchilar faoliyati, asarlarining mazmuni va ularda ko‘rilgan masalalar tahlil qilingan.

Ma‘lumki, ilk islom davlatchiligining shakllanish va rivojlanish tarixi ancha yillardan beri mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiq qilinmoqda. Xususan, bu sohada Rossiyalik sharqshunos va islomshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Shu o‘rinda, qo‘lyozma manbalar bilan bog‘liq ilmiy ishlar tadqiqotchidan o‘ziga xos yondashuvni talab qilishi, davr xususiyatlari, tarixiy termin va iboralarini murakkabligi bilan boshqa tadqiqotlardan ajrab turishini alohida ta‘kidlash lozim.

V.V. Bartold (1869-1930) Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi akademigi (1913) Rossiya sharqshunoslik maktabi asoschilaridan biri. U turkshunoslik, arabshunoslik, islomshunoslik, tarixshunoslik, arxivshunoslik, tilshunoslik sohalarida tadqiqotlar olib borgan. Uning amalga oshirgan tadqiqotlari, turli anjumanlarda so‘zlagan nutqi, ma‘ruzalari, monografiyalarga yozgan so‘z boshi va ilmiy maqolalari 9 jilddan iborat kitoblar to‘plamiga jamlangan²⁷. V.V. Bartoldning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi va sovet tuzumi g‘oyalariga xizmat qilgan subyektiv qarashlar mavjud. Shu bois ulardan foydalanayotganda mazkur jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Ilk islom davri tarixi bilan shug‘ullangan taniqli tadqiqotchi O.G. Bolshakov bo‘lib, u o‘z ishlarida asosiy e‘tiborini Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) faoliyati, tashqi siyosati va arab istilolariga qaratdi²⁸. Tadqiqotchi Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo va arab arxeologiyasi tarixiga oid manbalarni o‘rganishga kirishdi. U umrining oxirigacha ushbu yo‘nalishlar doirasida izlanishlar olib bordi. Bir so‘z bilan aytganda O.G. Bolshakov ilmiy faoliyati davomida o‘z ijodini sintez qilishga erishdi va bu uning sharqshunos sifatidagi noyob qobiliyati edi, deyish mumkin. U arab tilidagi qo‘lyozma manbalarni qunt bilan o‘rgandi va ularni dadil ilmiy muomalaga

²⁶ Полосин В.В. “Фихрист” Ибн Надима как историко-культурный памятник X века. – М.: ГРВЛ, 1989. – С. 69.

²⁷ Сочинения: в 9 т. / Ред. коллегия: А. М. Белинский, А. Н. Болдырев, Ю. Э. Брегел, И. Н. Винников, Б. Г. Гафуров, А. Н. Кононов, М. Е. Массон, И. П. Петрушевский, А. С. Тверитинова. – М.: ГРВЛ, 1963-77.

²⁸ Большаков О.Г. История Халифата: в 4 томах. – М.: ГРВЛ, 1989-2010 (Bundan keyin: Большаков. История); Большаков О. Г. Средневековый город Ближнего Востока: VII-середина XIII в.: Социально-экономические отношения. – М.: ГРВЛ, 2001. – 344 с.

kiritti. O.G.Bolshakovning olim sifatida shakllanishida uning ustozlari akademik I.Yu.Krachkovskiy (1883-1951), A.Y.Yakubovskiy (1886-1953), I.P.Petrushevskiy (1898-1977), V.I.Belyayev (1902-1976), A.M. Beleniskiylar (1904-1993) hal qiluvchi rol o'ynadi.

Olimning “История халифата” nomli to'rt jilddan iborat monografiyasi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Monografiya islom tarixining johiliyat davridan Abdulloh ibn Zubayrning vafoti bilan tugagan tarixiy voqealarni tizimli o'rganadi.

O.G.Bolshakov “Средневековый город Ближнего Востока” deb nomlangan asarida ilk bor VII-XIII asrlar o'rtasidagi Suriya va Misr shaharlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalari, demografik jarayonlarini tadqiq etadi. Asarda turli manbalarga tayanib shaharlar aholisi, ularning ijtimoiy tabaqalari, mashg'ulotlari, xalq harakatlarining yo'nalishi va mafkurasi tadqiq etilgan.

Islom tarixi va uning davlatchiligi bilan qiziqish G'arb tadqiqotchilarining ham nazaridan chetda qolmadi. Vilyam Myuir (1819-1905)ning “Muhammad payg'ambar hayoti va islom tarixi”, “Ilk xalifalik yilnomalari”, “Islomning yuksalishi va tanazzuli”, “Xalifalik, uning yuksalishi, tanazzuli va qulashi” kabi asarlari²⁹ ma'lum. Vilyam Myuirning tadqiqotlarida o'zi yashagan davrga xos Yevropaning islom diniga nisbatan bir yoqlama qarashlari yaqqol sezilib turadi.

Ser Tomas Uolker Arnold (1864-1930) islom madaniyati, san'ati va islom falsafasi bo'yicha mutaxassis. U asosan islom tarixi, xalifalik, arab-musulmon san'ati³⁰ tarixi bilan qiziqqan. Uning xalifalik tarixi asari tadqiqot obyektini tashkil etgan muammoga bag'ishlagan. Bu asarda muallif xalifalik institutining tashkil topishi, uning diniy asoslari bo'lmish Qur'on sunnatga muvofiqligi, xalifalik titullari, Abbosiylarning Bag'dod va Misrdagi faoliyati, xalifalikdan sultonlikka o'tish jarayonlari, Usmoniylar sulolasining faoliyati haqida tadqiqot olib borgan. Shuningdek, xalifalik tarkibiga kirgan hududlardagi xorijiy va shialarning harakatlari, davlat rahbarlarining rahbarlik titullari, ya'ni xalifa va sulton atamalarining mohiyati haqida ham to'xtalib o'tgan. Tomas Arnoldning deyarli barcha tadqiqotlarida islom diniga bo'lgan obyektiv munosabat yaqqol sezilib turadi. Bu holat muallif yashagan davr va uning egallab turgan mavqeyini hisobga olinsa, o'ta “noyob” holat deyish mumkin.

Adam Mes (1869-1917) o'z shahrida yaxshi tanilgan bo'lsa-da, uning nomi Shveysariya chegaralaridan tashqariga chiqmagan. Bu holat olimning 25-yillik ilmiy faoliyati davomida juda kam asarlar nashr ettirganligi bilan izohlanadi. “Мусульманский ренессанс”³¹ deb nomlangan asari Adam Mesga katta shuhrat

²⁹ Muir W. The Life of Mahomet and History of Islam, to the Era of the Hegira: With Introductory Chapters on the Original Sources for the Biography of Mahomet, and on the Pre-Islamite History of Arabia. London, 1858. 338 pp.; Muir W. Rise and decline of Islam. London, 1892. 71 pp.; Muir W. The Caliphate. Oxford, 1924. 412 pp. Muir W. Annals of the Early Caliphate: From Original Sources. London, 1883. 493 pp.; Muir W. The Caliphate: Its Rise, Decline and Fall. London, 1892. 624 pp.

³⁰ Arnold Th.W. The Preaching of Islam: A History of the Propagation of the Muslim Faith. 2nd ed. Originally published in 1896. London: Constable. 467 pp.; Arnold Th.W. The Caliphate. With an additional chapter by Sylvia G. Haim. London: Routledge and Kegan Paul, 1864. 267 pp.; Arnold Th.W. The Preaching of Islam: A History of the Propagation of the Muslim Faith. 2nd ed. Originally published in 1896. London: Constable. 467 pp.

³¹ Mez A. Die renaissance des islâms. Carl Winters Universitätsbuchhandlung, 1922; Мец А. Мусульманский Ренессанс. – М.: Наука, 1966 (Bundan keyin: Мец А.).

keltirgan. Asar 1922-yilda nemis, keyinchalik, ingliz (1927, 1937), ispan (1936), turk (1939), arab (1940-1941), rus (1973) tillarida nashr etilgan.

Adam Mesning ushbu asari hijriy III-IV (milodiy IX-X) - asrlar arab xalifaligi madaniyati tarixiga bag'ishlagan. U ko'rsatilgan davrlar doirasida, tegishli manbalarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan va ulardan "davrnin madaniy va tarixiy tavsifi uchun xizmat qiladigan hamma ma'lumotlarni tanlab", o'z asariga kiritgan³². Ko'plab mutaxassislarining yakdil fikrlariga ko'ra, Adam Mesning mazkur asari aynan IX-X-asrlar "arab imperiyasi" tarixiy-madaniy taraqqiyotining turli qirralarini ochib beruvchi materiallar to'plamidir. Muallif, qonunchilik, boshqaruv, moliya va soliq tizimi, mahalliy urf-odatlar, odamlarning turmush tarzi, adabiyoti, din, ta'lim tizimi haqida so'z yuritadi. Unda, bayramlar, shahar hayoti, uy xo'jaligi, ichki va tashqi savdo bo'yicha ham ishonchlik manbalardan ma'lumotlar keltirilgan.

Vilyam Montgomeri Vott (1909-2006)ning "Musulmon Ispaniyasi tarixi", "Muhammad Makkada", "Muhammad Madinada", "O'rta asrlarda Islomning Yevropaga ta'siri"³³ kabi asarlari chuqur ilmiy tahlilga ega manbalar sirasiga kiradi. U o'z tadqiqotlarida islom genezisining ijtimoiy asoslari va tarixiy shart-sharoitlari, uning siyosiy hamda iqtisodiy omillari, turli mafkuralarning musulmon davlatlari aholisi hayotiga ta'siri masalalarini tahlil qiladi. Tadqiqotchining tarixiy faktlarga obyektiv baho berishi sababidan bo'lsa kerak, uning ayrim asarlari rus tiliga ham tarjima qilingan³⁴.

Tadqiqot obyektini tashkil qilgan mavzu tabiiyki, arab tadqiqotchilarini ham qiziqtirgan. Muhammad Xudariy (1872-1927), Hasan Ibrohim Hasan (1892-1968 y.), Mahmud Shokir³⁵ (1932-1956), Akrom Ziyo Umariy (1942-y.t.), Muhammad Sallobiylar shular jumlasidandir.

Arab musulmon davlatchiligi masalalarining ayrim jihatlari mahalliy sharqshunos, tarixchi olimlar tomonidan ham o'rganilib ilmiy muomalaga kiritilgan. Xususan professorlar M.Usmonov, U.Uvatov, Sh.Kamoliddinov, A.Hasanovlar tomonidan islom tarixiga oid ilmiy asarlar tadqiq etildi. So'ngi yillarda

O'zbekistonda islom tarixini ilmiy tadqiq etish borasida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchilarining ulushi yuqori. Jumladan, M.M.Agzamova, Q.Qushbayev, Z.Ziynatullayev, S.Ummataliyev, O.Sotvoldiyev³⁶lar islom tarixi va uning davlatchiligi bilan bog'liq mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

³² Мец А. – С. 7.

³³ Watt M. A History of Islamic Spain. New York: Routledge, 1965. 183 pp.; Watt M. Muhammad at Mecca. Oxford: Clarendon Press, 1953. 208 pp.; Watt M. Muhammad at Medina. Oxford: Clarendon Press, 1956. 552 pp.; Watt M. The Influence of Islam on Medieval Europe. Edinburgh: University Press, 1972. 125 p.

³⁴ Уотт У.М. Мусульманская Испания. – М.: Наука, 1976; Уотт У.М. Мухаммад в Мекке. – СПб.: Диля, 2006; Уотт У.М. Мухаммад в Медине. – СПб.: Диля, 2007; Уотт У.М. Влияние ислама на средневековую Европу. – СПб.: Диля, 2011.

³⁵ Mahmud Shokir haqida so'z borganda ko'pchilik misrlik adib Abu Fihir Mahmud Muhammad Shokir (1909-1997) ga adashtirishadi. Bu tadqiqotchi Suriyaning Harasto shahrida tug'ilganligi uchun Mahmud Shokir al-Harastoni, deb ataladi.

³⁶ Agzamova M.M. Ibn Jarir at-Tabariyning "Tarix ar-rusul val-muluk" asari – islom tarixini o'rganish bo'yicha muhim manba. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Kushbayev F.Q. Payg'ambarlik risolatining makka davri. Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Ziynatullayev Z.I. VIII-XII asrlarda islomning markaziy osiyoga yoyilishi va boshqaruv tizimining o'zgarishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022;

“Arab-musulmon davlatchiligi rivojiga Eron va Vizantiya imperiyalarining ta’siri” nomli ikkinchi bobning *“Arab-musulmon davlatchiligi shakllanishi bilan bog‘liq jarayonlar”* nomli birinchi bo‘limda Makkada yakkaxudolik diniga da’vatining boshlanishi, hijratdan so‘ng Madina shahrida asos solingan musulmon jamoasining (*umma* – أُمَّة) shakllanishi, davlatning teokratik asoslari tahlil etilgan.

Hijratdan so‘ng arab va yahudiy qabilalari o‘rtasida “Madina ahdnomasi” tuzildi. Ta’kidlash lozimki, shartnoma imzolanayotgan vaqtda musulmon va yahudiylarni garchi har xil dinga e’tiqod qilsa ham bir jamoaga mansub dindorlar (*mu’minun* - المؤمنون) deb hisoblangan. Chunki Payg‘ambar (s.a.v.) ularni Muso payg‘ambarga berilgan ahdgga e’tiqod qilishlariga ishongan. Shartnoma mazkur qoida asliylikini isbotlaydi, chunki keyingi sektalashuvchilarni hech birining xayoliga yahudiylar va musulmonlarni bir jamoaga kiritish to‘g‘risida fikr kelmagan bo‘lar edi. Mazkur shartnoma (*hilf* - الحلف) Madinadagi turli dinlarga e’tiqod qiluvchi qabilalarni siyosiy jihatdan birlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, islom dinini qabul qilgan qabila va urug‘larning millati va irqidan qat’iy nazar bir jamoa (*umma*)ga birlashishi Payg‘ambar (s.a.v.) oldida katta imkoniyatlar ochdi.

Ichki Arabiston hududida siyosiy, harbiy va iqtisodiy mavqeyini mustahkamlagan Madina jamoasi Makkaga *umra* ibodatini (628) bajarish uchun 1400 kishilik karvon bilan yo‘lga tushadi. Makka zodagonlari Hudaybiya (الحديبية) nomli pasttekislikda sulh tuzishga majbur etadilar³⁷. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi. Musulmonlar orasida shartnomadagi bandlarga norozilik kuchli bo‘ldi. Ammo Payg‘ambar (s.a.v.)ni bu shartnoma mutlaqo qoniqtirdi. Chunki Quraysh zodagonlari uni Allohning elchisi deb tan olmasalarda, Madinadagi mustaqil jamoa (*umma*) rahbari sifatida o‘zlariga teng taraf bilib, ilk bora e’tirof etishi va muzokara olib borishga qaror qilishining o‘zi Madina jamoasi hamda Payg‘ambar (s.a.v.) uchun katta siyosiy g‘alaba edi. Buning boisi albatta, musulmonlar jamoasi va Quraysh o‘rtasidagi tinchlik sulhi Madina musulmonlariga Arabiston yarim orolida erkin harakat qilishlariga imkoniyat yaratar edi. Bu voqeani musulmonlar uchun aniq g‘alaba ekanligiga Qur’oni karim guvohlik beradi³⁸.

Makka va Madina o‘rtasida tuzilgan Hudaybiya shartnomasi shartlari makkaliklar tomonidan buzilgach, 629-yili Musulmonlar uchun oxirgi dushmani, Quraysh zodagonlarining yirik vakili Abu Sufyonning muzokara olib borish uchun Madinaga “bosh egib” kelishi, Muhammad (s.a.v.) rahbarligidagi musulmonlar jamoasining ichki Arabiston hududida siyosiy kuch sifatida g‘alaba qozonishiga va Makkani musulmonlar qo‘liga to‘la o‘tishiga zamin tayyorladi. 630-yilning boshida Payg‘ambar (s.a.v.) Madina va atrof qabilalardan o‘n ming kishilik harbiy qo‘shin

Ummataliyev S. Ahmad ibn Yahyo al-Balazuriyning “Futuh al-buldon” asarida movarounnahr tarixining yoritilishi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022; Ummataliyev S. Islom tarixidan oltin sahifalar (umaviylar davri). – T.: O‘qituvchi, 2021. – 296 b.; Sotvoldiyev O.X. Muhammad ibn Sa’d Zuhriy “at-Tabaqot al-kubro” asari islom tarixiga oid muhim manba. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022.

³⁷ at-Ṭabarī. – M. 2. – Ṣ. 633; Ibn Hishām. as-Sīrah al-Nabawiyyah. 4 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2001. – M. 3. – Ṣ. 264. (Bundan keyin: Ibn Hishām)

³⁸ Qur’on. 48:1.

to'plab, Makkaga yurish qildi³⁹. Makka fathi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vodi-l-qurodan to Toifgacha bo'lgan hududlardagi barcha qabilalar Madina hukmronligiga bo'ysungach, musulmon jamoasi, *umma* – teokratik tizimga asoslangan davlatga aylandi⁴⁰. Shuni ta'kidlash lozimki, Makka -Madina raqobati davrida Payg'ambar (s.a.v.) hech qachon hujumkor (agressiv) mavqeni egallamagan. Bu Badr, Uhud, Xandaq janglari hamda Makkaning olinishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Makka zodagonlari bilan tuzilgan Hudaybiya sulhi musulmonlar jamoasining Arabiston yarim orolida erkin diniy va siyosiy faoliyat olib borishlarini ta'minladi. 630-yilning boshida Makkaning musulmonlar tarafidan fath etilishi musulmon jamoasi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vodi al-qurodan to Toifgacha bo'lgan hududlardagi barcha qabilalar Madina hukmronligiga bo'ysungach, Muhammad ibn Abdulloh tarqoq holdagi, aniq bir qonunni tan olmaydigan, badaviy hayot tarzini boshidan kechirayotgan qabilalarni umumiy bir davlatga birlashtirish borasida katta faoliyat ko'rsatdi. U davlatning islomiy hukmlarga asoslangan o'ziga xos teokratik tizimini ishlab chiqdi va amaliyotga kiritdi.

Makka fathidan keyin Arabiston yarim orolida shakllangan Madina davlati diniy-siyosiy tusga ega bo'lib, bu teokratik tizim Muhammad payg'ambar (s.a.v.) shaxsi bilan bog'liq edi. O'zining harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy strategiyasiga ega bo'lgan bu davlat butun Arabiston yarim orolini to'liq egallab, Vizantiya va Eron imperiyalariga tahdid sola boshladi. Mazkur davlatlarning to'lig'icha musulmonlar hukmronligiga bo'sundirish va bu kichik jamoaning katta davlat maqomiga yetishida Roshid xalifalarning roli katta bo'ldi.

“*Davlatchilik asoslari shakllanishiga eski an'analarning ta'siri*” nomli ikkinchi bo'limda davlat apparatining shakllanishi, hukumat a'zolarining vazifalari va funksiyalarining Vizantiya va Sosoniylar imperiyalarining ta'siri tahlil qilingan. Islom jamoasi-davlati duch kelgan avvalgi muammolardan biri Payg'ambarga o'rinbosar (*xalifa*)ni tayinlash va unga qasamyod (بيعة – *bay'at*) keltirish bo'ldi. Islomdan avvalgi davr arablariga *xalifa* so'zi eskidan ma'lum bo'lib, u *malik* (podshoh)ning *voliysi* (viloyat hokimi) ma'nosida qo'llanilgan⁴¹. Mavqe jihatidan *xalifaga* yaqin yana bir shaxs – *radif* ham shunday vazifani bajargan. Bu mansab Laxmiylar podshohligida mavjud bo'lib, unga yetakchi qabila ulug'laridan biri tayinlangan.

Demak, qasamyod qilish (*bay'at*) amali eski arab an'analari qatoridan sof dunyoviy amal sifatida o'zlashtirib olinib, bir necha bosqich o'zgartirishlardan so'ng yangi davlatchilik amaliyoti sirasiga kiritildi. Undan so'ng ilk jamoa (*umma*) amaliyoti sifatida ulamolar tomonidan sakrallashtirilib, keyinchalik yolg'iz sof diniy hodisa sifatida talqin etila boshlandi.

Ilk davrda viloyat hokimlari mansabi ham asta-sekin shakllana boshladi. Avvaliga Payg'ambar (s.a.v.) islomni qabul qilgan qabila yoki shahar ahliga din asoslarini o'rgatish uchun *mu'allim* (معلم) tayinlar edi. Keyinchalik Madina nazorati

³⁹ at-Tabarī. – M. 3. – S. 60-61; Ibn Hishām. – M. 4. – S. 145.

⁴⁰ Большаков. История. – Т. 1. – С. 168.

⁴¹ Резван Е.А. Коран и его мир. – СПб.: ГРВЛ, 2001. – С. 163 (Bundan keyin: Резван. Коран).

ostiga o'tgan qabila va shaharlarda *mu'allimlar* mansabi *omil* (عامل) mansabi bilan o'zgartirildi. Lekin, xalifa Abu Bakr davriga kelib, bu *omillar* yoniga alohida *sadaqalar omillari* (عمال الصدقات) mansabi qo'shildi. Ular orasida *xaroj omili* (الخارج) davlat uchun eng ahamiyatlisi hisoblanib, doim voliy yonida bo'lgan. Umar ibn Xattob davrida Madina davlati tarkibiga ko'plab hududlarning kirishi bilan *omillar* ustidan *voliy* (والي) tayinlana boshladi. Hududlardagi voliylar shaharlarga *omillarni* o'zlari tayinlar edilar. *Xaroj omili* esa xalifa tomonidan tayinlangan.

Payg'ambar (s.a.v.)dan keyin faoliyat olib borgan davlat boshliqlari – xalifalar davriga kelib, ilohiyot bilan uzviy bog'lanish batamom to'xtadi. Bu esa o'z navbatida musulmonlarga o'zlari uchun yangi rahbar tanlash huquqini berdi. Natijada yangi boshqaruv tizimi – xalifalik instituti shakllandi.

“Yangi institutlar paydo bo'lishida Eron va Vizantiya imperiyalarining o'rni” nomli uchinchi bo'limda shu davrgacha tadqiqotlarda kam e'tibor berilib kelayotgan muammolar qatorida xalifa maslahatchilari, ularning vazifalari, davlat apparatida tutgan o'rni masalasini olishimiz mumkin. Xalifa vazifalari masalasida ko'p tortishuvlar bo'lmadi: davlat-jamoa rahbari payg'ambarlik vazifasidan boshqa Muhammad (s.a.v.)ning barcha dunyoviy funksiyalarini bajarishi lozim edi. Lekin, bundan keyingi masalalarda yosh davlatni jiddiy imtihonlar kutayotgan edi. Yangi davlat o'zining hayotchanligini amalda isbotlashi lozim edi.

Ma'lumki, vazirlik vazifasi qadimdan Vizantiya, sosoniylar, yahudiylar va boshqa qavmlarga ma'lum bo'lgan. Payg'ambar (s.a.v.) davrida bu vazifa ilk davlat idorasida tatbiq etilmagan. Ammo Abu Bakrni ba'zi Sosoniylar va Vizantiya imperiyalarining davlat tizimidan xabardor arablar “وزير الرسول” (*Payg'ambarning vaziri*) deb ataganliklari ma'lum. Umaviylar davriga kelib, davlat boshqaruvi tizimida *de-fakto* (amalda) shu davrgacha mavjud bo'lgan maslahatchi vazifasi *de-yure* (yuridik jihatdan) “vazir” lavozimini kiritish bilan o'zining mantiqiy nihoyasiga yetdi.

Markaziy boshqaruv apparatidagi mansablar masalasida ma'lum siljishlar yuz berdi. Ilk davrda ba'zi diniy matnlarni yozib oluvchilar sifatida kotiblar zikr etiladi. Davlat kanselyariyasi kengaya borishi bilan kotiblar mehnatiga talab kuchaya bordi. Kotiblar haqidagi ishonarli ma'lumotlar Umar ibn Xattob davriga tegishlidir: uning hukmronligi paytida kotiblarga muayyan maosh tayinlanadi⁴². Kotiblar mansabi ham ular vazifasi murakkablashib borganligi sababli ixtisoslasha boradi. Umaviylar davriga kelib, kotiblarning soni beshtaga yetdi: *maktublar kotibi*; *xarojlar kotibi*; *harbiy kotib*; *shurta xizmati kotibi*; *qozilik kotibi*⁴³.

Boshqaruv tizimining shakllanishida *devonlarning*⁴⁴ joriy etilishi muhim rol o'ynadi. Devon tizimi Sosoniylar davlati an'analaridan o'zlashtirildi. Unda bir necha bo'limlar mavjud bo'lib, “*Askarlik devoni*” (ديوان الجند) da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilandi. “*Xaroj devoni*” (ديوان الخارج)da baytu-l-molga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda

⁴² Khalīfah ibn Khayyāṭ. at-Tārīkh. Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 1995. – ʃ. 154-155 (Bundan keyin: Ibn Khayyāṭ. at-Tārīkh.); at-Ṭabarī. – M. 4. – ʃ. 39-241.

⁴³ Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah. Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 2004. – ʃ. 205-206. (Bundan keyin: Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah)

⁴⁴ Devon – fors tilida “ro'yxat”, “qayd qilish” yoki “daftar” ma'nolarini anglatadi.

devonning doimiy tarkibini o‘z ichiga oluvchi ro‘yxat tuzilgan bo‘lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo‘lgan kishilar ro‘yxati qayd etildi. Devon tizimi markaziy hokimiyat tarkibida joylashdi. Istilo qilingan yerlardagi kirim-chiqimni nazorat qilish esa bevosita voliylar zimmasida edi. Bu tizim vositasida Umar davlat xizmatchilariga, avvalo harbiy xizmatchilarga haq to‘lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo‘ldi.

“*Davlatchilik rivojiga ichki ziddiyatlarning ta’siri*” nomli to‘rtinchi bo‘limda Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan keyin Madina va ichki Arabistonda vujudga kelgan siyosiy tanglik va bu harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan diniy-siyosiy vaziyat tahlil etilgan.

Abu Bakrning siyosiy rahbar sifatidagi birinchi vazifasi davlat birligini tiklab, uni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Unga qarshi turgan kuchlar ko‘pchilikni tashkil qilardi. Bu kuchlarning harakati arab-islom adabiyotida “*Ridda*”⁴⁵ (الردة) nomini oldi. Manbalarda *ridda* harakatidagi asosiy ishtirokchi sifatida “soxta payg‘ambarlar” – *mutanabbiylar* (متنبی) ko‘rsatiladi.

Lekin bu yerda ikki nozik jihat borki, harakat a‘zolarining bu davr siyosiy voqealarini to‘g‘ri anglashda chalkashliklarga yo‘l qo‘yib, tadqiqotchilarni noto‘g‘ri yo‘lga boshlash xavfi mavjud. Birinchidan, *ridda* “arab tarqoqligini” qayta tiklash yo‘lidagi siyosiy harakat – Madina hukmronligidagi markazlashgan davlatga qarshi xuruj edi. Ikkinchidan, *mutanabbiylar*ning aksariyati Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayotlik vaqtlarida bosh ko‘tardilar. Demak, barcha manbalarda va ulardan keyin ko‘p sonli tadqiqotlarda “diniy” jarayon sifatida talqin etilgan bu harakat amalda aniq siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan. Manbalarda “*ridda*” harakatini ko‘p hollarda “sof diniy”, ya’ni “islom diniga qabilalarni qaytarish” sifatida talqin qilinadi. Ammo Madina shahar-davlatiga qarshi chiqqan rahbarlardan faqat 5 kishi *mutanabbiylik*ni da’vo qilganliklarini ko‘rsatiladi. Qolganlari sof siyosiy shiorlar ostida harakat qildilar.

Bu ma’lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘sha paytlarda hali ham Payg‘ambar (s.a.v.) davridagi kabi faqat diniy rahnamo sifatida e’tirof etilgan shaxsgina davlat boshlig‘i bo‘lishi mumkin edi. Demak, Abu Bakr zamonida davlat o‘zining teokratik xususiyatini saqlab qoldi. Ammo oliy hokimiyat uchun kurash borgan sari oshkora siyosiy tus ola boshladi. *Ridda* voqealari tafsilotlarining tahlili Madinaga qarshi bo‘lgan siyosiy-harbiy harakat qamrovining kengroq, jiddiyroq bo‘lganligini ko‘rsatadi. Abu Bakrning barcha arab qabilalarini Madina shahar-davlati nazorati ostiga olish yo‘lida olib borgan janglari boshqa imperiyalar hududiga ko‘chdi va arab yurishlariga aylanib ketdi.

61/680-yili Karbaloda Husayn ibn Alining o‘ldirilishi oqibatida Abdulloh ibn Zubayr (2/624-72/692) Makka va Madinani Damashq xalifaligi tarkibidan chiqaradi. Keyinchalik butun Hijoz o‘lkasi, Yaman, Basra, Kufa va Xuroson aholisi Abdulloh ibn Zubayrni xalifa, deb tan oladilar va Makka uning poytaxti etib tayinlanadi. Umaviylar esa Shom va Misrning bir qismiga hukmronlik qildilar xolos. Bu holat Umaviy xalifa Abdulmalik ibn Marvon (26/646-86/705, hukm. 65/685-86/705)

⁴⁵ “*Ridda*” – “qaytish”, “chekinish” ma’nolarini anglatib, islomiy adabiyotda “dindan qaytish, yuz o‘girish” xususiy ma’nosida qo‘llaniladi.

davrigacha davom etdi. Bu davrda Makkaning bosib olinishi va Abdulloh ibn Zubayrni o'ldirilishi natijasida islom tarixidagi ikkinchi fuqarolar urushiga (الفتنة الثانية – *al-fitna-s-saniya*) yakun yasadi.

“Ilk arab-musulmon davlat boshqaruvida diniy omilning o'rne” deb nomlangan uchinchi bobning *“Rahbarlik mavqelarining o'zgarib borishi va uning nazariy hamda amaliy jihatlari”* nomli birinchi paragrafda Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyin jamoa-davlat rahbari lavozimi *“xalifa (الخليفة)”* deb atay boshlanganligi⁴⁶ va bu bilan bog'liq jarayonlar haqida so'z boradi. Abu Bakrni *“Xalifatu rosulillahi”*, ya'ni *“Alloh Payg'ambarining o'rinbosari”* deb atadilar. Ma'lumki, Muhammad (s.a.v.) *malik* (podsho) martabasini o'ziga ep ko'rgan emas, lekin uning vazifalarini *umma* ichida bajargan. Madina masjididagi *minbar* malik hokimligidagi taxt ramzi vazifasini o'tagan⁴⁷. Lekin, Abu Bakr payg'ambarlik darajasiga da'vosi yo'qligini ta'kidlash uchun minbarning pastki qismida o'tirgan. Minbarning yuqori qismiga chiqib o'tirgan uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning bu xatti-harakati ulamolarning keskin qarshiligiga uchraydi. Chunki bu davrda diniylik sohasini to'la egallagan ulamolar dunyoviy hokimiyat – xalifalikning bu sohani zabt etishga bo'lgan navbatdagi urinishini shu tariqa qaytardilar⁴⁸.

Abu Bakrdan so'ng rahbarlikka saylangan Umar ibn Xattob mantiqqan Abu Bakrning o'rinbosari, ya'ni *“Xalifatu xalifati rasullillohi” (خليفة رسول الله خليفة)* deb ataldi. Hokimiyatning bu turda uzatilishi (xalifadan xalifaga) Madina jome masjidida minbarga yangi kelgan har bir xalifaga qo'shimcha neshin yasash amalida ham ko'rishimiz mumkin.

Umar ibn Xattob davrida davlat shakllanish jarayonlarining tezlashishi natijasida xalifa bajarayotgan vazifalar ichida dunyoviylik jihatining ko'payib ketishi oqibatida bu mansab diniy hissiyoti kuchli fuqarolar tarafidan bir tomonlama, ya'ni dunyoviy deb qabul etila boshlandi. Hokimiyatning sakral tusini yo'qotishi ijtimoiy ongda uning umumiy ijtimoiy zaiflashuviga olib kelishi muqarrar edi. Shunday bir holatda xalifa o'zini *“yarim diniy”* atama – *“Amiru-l-mu'minin”* (Musulmonlar amiri, ya'ni *amir* dunyoviy ma'noni anglatuvchi atama bo'lsa, *mu'minun* (mo'minlar) atamasi musulmonlar jamoasiga ishorat edi) deb atashlarini ma'qul ko'rdi⁴⁹.

Usmon ibn Affon o'ldirilganidan so'ng boshlangan birinchi fuqarolar urushi (656-661) davrida bu ikki atama (*xalifa* va *amiru-l-mu'minin*) hokimlarning salbiy xatti-harakatlari oqibatida jamiyat a'zolari, ayniqsa uning dindor qismi vakillari – ulamolar ko'z oldida o'z ishonchini, salmog'ini yo'qotdi. Shu sababli diniy shiorlar ostida o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun kurashayotgan xalifa Ali ibn Abu Tolib tarafdorlari uni *“Imom”* deb atay boshladilar. Demak, endilikda xalifaning vazifalaridan biri – jamoa namoziga boshchilik qilish amalidan olingan atamasi davlat rahbari siymosiga *“diniy tus”* berish (uning hokimiyatini sakrallashtirish) maqsadida foydalanila boshlandi. Bu esa davlat rahbari funksiyalarining orasida

⁴⁶ Bu so'zning lug'aviy ma'nosi *“o'rinbosar”*ni anglatadi.

⁴⁷ Резван. Коран. – С. 164.

⁴⁸ Резван. Коран. – С. 166.

⁴⁹ Hasan, 'Alī Ibrāhīm. At-Tārīkh al-Islāmī al-'Ām. Al-Qāhirah: Maktabat al-Nahḍah al-Miṣriyyah, 1999. – Ş. 242; Бартольд В. В. Халиф и султан // Т III. – С. 19.

diniylikka nisbatan dunyoviylik unsurlarining yanada ortib borganligining nishonidir.

O'sha davrdan oldin va bevosita zamondosh bo'lgan davlat boshqaruvini qiyoslash bu masalani yanada oydinlik kiritadi. Tadqiqotchi T. Arnold o'z tadqiqotida o'rta asrlardagi Rim imperiyasi bilan ilk Arab xalifaligining farqini yoritib berishga harakat qilgan. U quyidagicha yozadi: Imperator aholining diniy ishlariga aralashmagan. Davlatning diniy ishlari bilan Papa shug'ullangan⁵⁰. Arab xalifaligida esa mazkur vazifaning har ikkalasi ham xalifa zimmasiga yuklangan. Xalifalikka o'tirgan shaxs davlat boshlig'i sifatida ham diniy, ham siyosiy vazifalarni boshqara olishi lozim bo'lgan. Xalifa odamlarga namozda imom, askarlarga lashkarboshi va yana bir qator vazifalarni o'z bo'yniga olishi kerak edi.

Muoviya ibn Abu Sufyon va Ali ibn Abu Tolib o'rtasidagi ixtilofdan keyin paydo bo'lgan xavorijlar guruhi o'zlariga tayinlangan rahbarni "xalifa" deb atadilar.

Umaviylar sulolasi davlat boshliqlarining titullari ham xalifa atamasi bilan qoldi. Ushbu sulola boshqargan davrda arab-musulmon davlati deyarli Payg'ambar (s.a.v.) va xulafoi roshidun davri boshqaruvidan tubdan farq qildi. Davlat boshqaruvida sakral tusni saqlab qolish maqsadida xalifa tituli bilan birga "*amiru-l-mu'minin*", "*Xalifatulloh*" va "*Xalifatu-r-rohman*" nomini ham saqlab qoldilar.

Abbosiyilar davriga kelib, davlat rahbarligiga tayinlangan xalifalar ismlariga o'z shaxsiyati va diniy salohiyatini kuchaytirish maqsadida turli jarangdor maqomlar qo'yish amaliyoti boshlandi.

"*Davlat boshqaruvida shahar-poytaxt masalasi*" nomli ikkinchi bo'limda arab-musulmon davlati uchun poytaxt vazifasini o'tgan shaharlar haqida to'xtalib o'tilgan. Makkada vassaniylik (ko'p xudolilik) g'oyasini saqlab qolishga tish tirnog'i bilan kurashgan Quraysh qabilasining asosiy maqsadi Arabiston yarimorolida o'z gegemonligini saqlab qolishga qaratilgan edi. Makka zodagonlari Muhammad (s.a.v.)ni diniy rahnamo emas, siyosiy raqib sifatida qabul qildilar. Makka shahar-davlati uchun ikkinchi rahbarni paydo bo'lishi qurayshiyalar uchun siyosiy tanazzul muqarrar, deb tushundilar. Shunday holatda Payg'ambar (s.a.v.) o'zi tug'ilib o'sgan Makkadan boshqa shaharga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Makkadan taxminan 350-400 kilometr shimolda Madina shahri joylashgan. Ptolemey o'zining "*Geografiya*"sida bu shaharni "*Yatrippa*", Vizantiyalik Stefan esa "*Yatrippa polis*" (shahar-davlat) deb atagan⁵¹. Shahar "*Yasrib*" nomi bilan Qur'onda ham zikr qilinadi⁵². Qur'onda uchraydigan shaharning yangi "*Madina*⁵³ – المدينة" nomi hijratdan so'ng paydo bo'ldi.

656-yili Usmon ibn Affonni o'ldirgan qo'zg'olonchilar tomonidan Ali ibn Abu Tolibning davlat rahbarligiga zo'rlab saylanishi, xalifalik poytaxti bo'lgan Madina shahrida beqarorlikning boshlanishiga olib keldi. Oldingi xalifalar davrida Madina hukmronligiga bo'ysungan ma'muriy bo'linmalar xalifa Alining rahbarligini tan olmadilar. Damashq, Kufa, Fustot, Basra viloyat va shaharlari xalifaga bay'at

⁵⁰ Arnold Th. The Caliphate. London: Routledge and Kegan Paul, 1864. – P. 133.

⁵¹ Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва ilk ислом: I китоб. Жоҳилия асри. – Т.: ТИУ, 2001. – Б. 161-162.

⁵² Qur'on. 33:13.

⁵³ Madinatu-r-Rosul – مدينة الرسول (Payg'ambar shahri)

bermadilar⁵⁴. Natijada Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va ilk xalifalar tomonidan tashkil etilgan Markazlashgan davlat bir necha qismlarga bo'linish jarayonini boshidan kechira boshladi.

Hakamlilik sudi natijasiga ko'ra Muvoiyani haqiqiy xalifa deb e'lon etilishi oqibatida Ali tarafdorlarining ko'pgina qismi ajrab chiqib ketdi. Buning natijasida islom tarixida "Xorijiyalar" yoki "Xavorijlar" ilk siyosiy partiyasi vujudga keldi. Ular Nahravon⁵⁵ shahrini o'zlariga poytaxt etdilar. O'zlariga Abdulloh ibn Vahb Rosibiy (vaf. 658)ni xalifa etib tayinladilar⁵⁶. Ali ibn Abu Tolib bilan xorijiyalar o'rtasidagi jangda Abdulloh ibn Vahb o'ldirildi. Uning tarafdorlari xalifalikning turli hududlariga tarqalib ketdilar.

Damashqda o'zini xalifa deb e'lon etgan Muoviya ibn Abu Sufyon, Kufada xalifa Ali alohida hududlarni boshqara boshladilar. Ali ibn Abu Tolibni xorijiy Ibn Muljam tomonidan o'ldirilgandan keyin o'rniga uning o'g'li Hasan ibn Ali (2/624-50/670) o'tirdi. 41/661-yili Hasan ibn Alining Kufa ahlini Muoviya ibn Abu Sufyonga bay'at etishga ko'ndirdi. 40/661-yildan Markazlashgan arab-musulmon davlatini boshqarish Umaviylar sulolasiga o'tdi. Muoviya Madina "qariyalari"ning zerikarli hayotini Damashqdagi zamonaviy turmushga almashtirdi. Natijada umaviylar xonadoni uchun poytaxtni Damashq shahri o'tay boshladi.

61/680-yili Karbaloda Husayn ibn Alining o'ldirilishi oqibatida Abdulloh ibn Zubayr (2/624-72/692) Makka va Madinani Damashq xalifaligi tarkibidan chiqaradi. Keyinchalik butun Hijoz o'lkasi, Yaman, Basra, Kufa va Xuroson aholisi Abdulloh ibn Zubayrni xalifa, deb tan oladilar hamda Makka uning poytaxti etib tayinlandi. Umaviylar esa Shom va Misrning bir qismiga hukmronlik qildilar xolos⁵⁷. Bu holat Umaviy xalifa Abdulmalik ibn Marvon (26/646-86/705, hukm. 65/685-86/705) davrigacha davom etdi. Bu davrda Makkaning bosib olinishi va Abdulloh ibn Zubayrni o'ldirilishi natijasida islom tarixidagi ikkinchi fuqarolar urushiga (*al-fitna-s-saniya*) yakun yasadi.

132/749-yili qo'zg'olonchilar Kufa shahrini qo'lga olganlaridan keyin Hoshimiylar xonadoniga taalluqli bo'lgan yangi xalifalikning birinchi vakili Saffoh o'z qarorgohini Kufa shahrida qoldirdi. Lekin, shahar yaqinidagi Anbor⁵⁸ viloyatiga yangi qarorgoh qurishga kirishdi. Ushbu qarorgohga "Hoshimiya" nomini berdi⁵⁹. Saffohning vafotidan keyin taxtga uning ukasi Abu Ja'far (136/754-158/775) o'tirdi. Kufadagi etnik va diniy kelishmovchiliklar hamda hukumatga bo'ysunmaslik davlatda beqarorlikning davomiyligini ta'minlardi. Shuning uchun xalifa Mansur Kufadan poytaxtni ko'chirish masalasini diqqat markaziga qo'ydi. U sosoniylar davlati poytaxti bo'lgan Madoin (Ktesifon) shahri o'rnida yangi shahar qurishni rejalashtirdi⁶⁰. Bu shahar avvaliga "Mansuriyya", keyinchalik, "Madina mudavvara (مدينة المدورة – aylana shahar)", qurib bitkazilgach, "Madinatu-s-salom (مدينة السلام –

⁵⁴ Jilī, Aḥmad Muḥammad Aḥmad. Dirāsah 'an Firaq fi Tārīkh al-Muslimīn: al-Khavārij va al-Shī'ah. Ar-Riyād: Maṭba' Malik Fayṣal, 1988. – ʃ. 242.

⁵⁵ An-Nahravon – Bag'dod yaqinidagi shahar.

⁵⁶ Al-Umarī, Akram Ḍiyā'. 'Aṣr al-Khulāfā' ar-Rāshidah. Ar-Riyād: Maktabat al-'Ubaykān, 2001. – ʃ. 483.

⁵⁷ Ibn Khayyāt. at-Tārīkh. – ʃ. 175; at-Ṭabarī. – M. 4. – ʃ. 247.

⁵⁸ الأنبار – Iroqdagi Furot daryosi yoqasidagi viloyat. 634-yili Xolid ibn Valid tomonidan istilo etilgan.

⁵⁹ Muir W. The Caliphate: Its Rise, Decline and Fall. London, 1892. – P. 394 (Bundan keyin: Muir. The Caliphate).

⁶⁰ Рыжов К.В. Все монархи мира. Мусульманский Восток VII-XV вв. – М.: Вече, 2005. – С. 12.

tinchlik shahri)”, deb ataldi. Shaharning hozirgi kungacha saqlanib qolgan nomi – Bag‘dod qadimgi fors tilidan olinib, “Yaratganning in’omi” degan ma’noni anglatadi⁶¹.

Xalifa Mu’tasim Billoh (218/834-227/843) taxtga o‘tirgandan keyin davlat poytaxtini Bag‘doddan 100 km⁶² shimolda joylashgan hududda yangi qarorgoh qurdira boshladi. 221/836-yili shahar bitib xalifa unga ko‘chib o‘tdi⁶³. Unga Samarra (سامراء – ko‘zni quvontiruvchi, انىغى رأى من سُرّ – ko‘rgan quvonadi) nomini berdi.

Umaviylar sulolasining so‘nggi vakili Abdurahmon Doxil (113/731-172/788) Ispaniyadagi umaviylar tomonidan qo‘yilgan voliyilar yordamida Kordova yerlariga yetib oldi. Yarim orol Abbosiylarga qarshi bo‘lib, u yerdagi arablarning deyarli barchasi Damashqlik edi. Shuning uchun ular umaviylar sulolasining vakilini ochiq kutib oldilar. Ispaniyadagi xorijiylar xalifani o‘zlaridan bo‘lishini kutardilar, lekin Abbosiylar tomonidan kuchli ta‘qibga uchraganliklari uchun Abdurahmonga qarshilik ko‘rsata olmadilar⁶⁴. Abbosiylar Ispaniyani Bag‘dod hukmiga bo‘ysundirishga bir necha bor harakat qildilar, ammo ularning bu urinishlari besamar ketdi. Natijada, Yevropada Kordova xalifaligi vujudga keldi. Bu xalifalikni umaviylar oilasi vakili Abdurahmon I Doxil boshqardi⁶⁵.

Islom dini Misr hududiga Umar ibn Xattob davrida kirib kelgan. 19/640-yili Fustot shahri qurilgan. 358/969-yili Fotimiylar sulolasi Fustot shahri⁶⁶ yaqinida “المدينة القاهرة” Qohira (g‘alaba qiluvchi) shahrini bunyod etdilar. Fotimiylar sulolasi vakili Mu‘iz Lidinillah davrida Qohira shahrini o‘zlariga poytaxt etib tanladilar. Shuningdek, Qohira Tuluniylar (256/871 – 292/905), Ixshidiylar (321/933 – 357/968), Ayyubiylar (564/1170 – 648/1250), Mamluklar (648/1250 – 922/1517) kabi mustaqil davlatlar uchun poytaxt vazifasini o‘tadi.

Islom dini uchun mo‘tabar hisoblangan shaharlar Makka va Madina juda ko‘p boshqaruv ta‘siriga tushdi. Ammo har bir xalifa, amir va sulton uchun muqaddas shahar sifatida o‘zining ulug‘vorligi va muqaddasligini yo‘qotmadi.

“Islom davlatchiligi boshqaruvida dunyoviy va diniy jarayonlarning o‘zaro muvozanati”, deb nomlangan uchinchi paragrafda davlatchilik rivojida diniy va dunyoviy prinsiplarning o‘zaro muvozanati tahlil etilgan.

Ma’lumki, Muhammad (s.a.v.), yangi din targ‘ibotchisi bo‘lish bilan bir qatorda, jamoa boshlig‘i-dunyoviy rahbar⁶⁷ sifatida faoliyat olib borgan. U “arab tarqoqligiga” barham berib, ichki Arabistonda markazlashgan davlatchilikka tamal toshini qo‘ydi va o‘z hokimiyatini amalda islom dini orqali sakrallashtirdi. U dunyoviy hokimiyat vazifalarini – *aqid* (عقيد – harbiy qo‘mondon), *sayyid* (سيد –

⁶¹ al-Khatib al-Baghdadi. Tarih Baghdad. 24 m. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2004. – M. 2. – S. 112.

⁶² Tadqiqotchi T.Irmiyayevaning fikricha, 120 km (Ирмияева Т. Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной порты. – Пермь: Звезда, 2000. – С. 47.)

⁶³ Али-заде А. А. Хроники мусульманских государств I-VII веков хиджры. – М.: Умма, 2004. – С. 164-165 (Bundan keyin: Али-заде).

⁶⁴ Muir. The Caliphate: – P. 418.

⁶⁵ Али-заде. – С. 233.

⁶⁶ Fustot shahri hozirgacha saqlanib qolgan va uni “Qadimgi Qohira”, deb ataladi.

⁶⁷ Mantgomeri Vatt Muhammad payg‘ambar barpo etgan davlatning boshqaruv tizimiga baho berarkan, uni quyidagicha izohlaydi: “Muhammad payg‘ambar yangi kemani qurishda eski kemanding qimmatbaho qismlaridan o‘z o‘rnida foydalana bildi” (Watt M. Muhammad at Medina. Oxford: Clarendon Press, 1956. – P. 289).

qabila ulug‘i), *malik* (ملك – podshoh), *qozi* (قاض – hakam) mansablarini o‘z shaxsida birlashtirdi.

Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng jamoa-davlatni teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o‘zgarishlar ro‘y berishi muqarrar edi. Birinchidan, *vahiy* poyoniga yetgan edi. Chunki islom ta‘limotiga binoan, Muhammad (s.a.v.) – payg‘ambarlarning so‘nggisi – muhri (*Xotamu-l-anbiyo* – خاتم الأنبياء) edi. Demak, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita ilohiyot amri ila boshqarish, unga tub o‘zgartirishlar kiritish bundan so‘ng mumkin bo‘lmay qoldi, boshqa so‘z bilan aytsak, islom tarixida teokratiya davri tugay boshladi. Bunday sharoitda, islom rasmiy din sifatida e‘tirof etilgan jamiyatda dunyoviylik va diniylikning mutlaqo yangi muvozanati jadallik bilan shakllana boshladi. Bu jabhada, albatta, birinchidan, *ummaning* qisqa vaqt ichida shakllantirgan o‘z an‘analari, ikkinchidan, avval ichki Arabiston davlatchilik unsurlari, keyinchalik, arab istilolari natijasida, boy Yaqin Sharq an‘analari o‘zaro ta‘sir jarayoniga kirishdi.

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) o‘z shaxsida ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatni birlashtirganligi xalifalar faoliyatida katta rol o‘ynadi. Bu esa yangi jamiyat taqdirida ham ko‘p oqibatlariga olib keldiki, ular keyinchalik o‘zlarini yorqinroq namoyon qila boshladilar. Bu o‘rinda ilk xalifalarning dunyoviy va diniy sohada olib borgan faoliyatlarining ma‘lum jihatlarini batafsil ko‘rib chiqmoq maqsadga muvofiqdir. Xalifalik maxsus diniy institut hisoblanmay, u ko‘proq dunyoviy komponentlarni o‘zida mujassamlashtirgan edi. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng muhojirlar va ansorlar o‘rtasidagi asosiy tortishuv mamlakatga harbiy yo‘lboshchi (*amir*) – xalifa saylash masalasida bo‘ldi⁶⁸. Shu yerning o‘zida hukmronlikning boshqa vazifalari (qozilik va moliyaviy masalalar bo‘yicha) muhojirlar o‘rtasida taqsimlandi⁶⁹. Xalifalikning dunyoviy vazifasi, birinchi navbatda, davlatni boshqarish, ya‘ni amirlik deb belgilandi. Yangi zabt etilgan mamlakatlardagi mavjud davlatchilik an‘analarining ratsional unsurlari Arab davlatining boshqaruv tizimlariga jadal kirib keldi. Buning natijasida xalifa asosan davlat apparatini tuzish va boshqarish, siyosiy masalalarga rahbarlik qilishga o‘zining asosiy e‘tiborini qaratdi.

Yangi vujudga kelgan davlat vositasida hech qanday tartib va intizomni bilmaydigan Arabiston yarim orolidagi badaviy qabilalarni yagona davlat hukmiga bo‘ysundirib, o‘z zamonasining kuchli saltanatlari sanalmish Sosoniylar va Vizantiya imperiyalariga tahdid solish darajasiga yetdilar. Mana shu tarqoq yashaydigan qabilalar kuchlarini birlashtirish natijasida Sosoniylar saltanati kabi yuksak taraqqiyotga ega bo‘lgan imperiyaning to‘rt yuz yillik tarixiga yakun yasaldi. Vizantiya imperiyasining arklarini larzaga soldi. Iroq, Suriya va Misr kabi qadimgi madaniyat o‘choqlari Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shib olindi. Xalifalar faoliyatida sof dunyoviy vazifalar – davlatni boshqarishda qarorlar qabul qilish va ularning

⁶⁸ Прозоров С.М. К проблеме верховной власти в исламе // Ислам ва дунёвий-маърифий давлат. – Т.: Имом ал-Бухорий жамғармаси, 2002. – С. 10 (Bundan keyin: Прозоров, 2002).

⁶⁹ Bunga Payg‘ambarning umma orasida tarqalgan “Imomlik – Qurayshdan, qozilik – ansorlardan va azon chaqirish esa habashlardandir”, degan hadisi ishorat beradi (Hasan Ibrāhīm Ḥasan. Ta’rīkh al-Islām al-Siyāsī wa al-Dīnī wa al-Thaqāfī wa al-Ijtimā’ī: 4 m. Bayrūt, 1996. – M. 1. – §. 8-9; al-Khudharī, Muḥammad. Ittām al-Wafā’ fi Sirat al-Khulafā’. Bayrūt: Dār al-Qalam, 2024. – §. 256).

ijrosini nazorat qilish funksiyalarining muntazam ortib borib, davlat apparati tezda shakllanib, bir maromda ishlaydigan tizimga aylandi.

Davlatchilik bilan fuqaroviy jamiyat (*umma*) ham o'zgardi. Bu borada turli siyosiy kuchlarning paydo bo'lganligini birinchi navbatda qayd etish lozim. Shuningdek, diniy manba – Qur'on va Payg'ambar (s.a.v.) hadislarini o'rganishga bo'lgan moyillik kuchaydi. Bu esa, o'z navbatida, diniy avtoritetlar – *mufasssirlar*, *muqri*'lar, *muhaddislar*, *faqihlar* qatlamining shakllanishiga olib keldi. Bu vaqtdan e'tiboran, diniy masalalar bo'yicha ijtimoiy fikrni asosan dunyoviy funksiyalar bilan band bo'lgan xalifalar emas, balki diniy an'ana va matnlarni chuqur biluvchi ulamolar shakllantirar edilar⁷⁰. Shu davrdan boshlab, hokimiyatning ikki tarmog'i – dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi qarama-qarshi turish boshlandi. Diniylik bayrog'i – ulamolar qo'lida, dunyoviylik esa – xalifalar amalida bo'ldi. Har ikki guruh o'z iddaolarini diniy iboralar va shiorlar ostida olib bordilar. Bu kurash ilk xalifalar davridan shu kunimizgacha islom jamiyati va ta'limotining tarixini belgilab kelmoqda.

“Islom davlatchiligi faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va madaniy masalalar” deb nomlangan to'rtinchi bobning *“Islomda soliq tizimi va uning davlat ijtimoiy-iqtisodiyotiga ta'siri”* nomli birinchi bo'limda arab-musulmon davlatchiligi soliq tizimining takomillashuvi jarayoni va chet mamlakatlardan o'zlashtirilgan soliqlar haqida so'z boradi.

Islom dinida ham zakot solig'i musulmonlarning boy tabaqalari uchun diniy majburiyat sifatida joriy etildi. Xristianlik va yahudiylikdan farqli o'laroq zakot solig'i musulmonlardan yiliga bir marta yig'ib olinadigan bo'ldi. Avvaliga Muhammad (s.a.v.) va xalifa Abu Bakr davrida (632-634) zakot solig'i Qur'onda buyurilganidek⁷¹, faqat *faqirlar*⁷², *miskinlar*⁷³, *sadaqa [zakot] yig'uvchilar*, *ko'ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar*, *qullarni ozod qilish uchun*, *qarzdorlar va musofirlarga* tarqatildi. Payg'ambar (s.a.v.) zakot solig'idan tushgan mablag'ning ma'lum qismini musulmon bo'lmagan arab qabilalarining shayxlari, e'tiborli kishilarga nafaqa sifatida berib turgan. Bundan asosiy maqsad ularning qabiladoshlari orasida islom diniga nisbatan hurmat hissini uyg'otish edi.

Umar ibn Xattobning Qur'on oyatlarida zikr etilgan *“ko'ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar”* (مؤلفة قلوبهم – *muallafatu qulubihim*)ga nafaqa berishni to'xtatish haqidagi taklifi bu oyat hukmini bekor (منسوخ – *mansux*) qildi. Davlat soliq tizimidagi “zakot” (زكاة) tushumi miqdori sug'oriladigan yerdan olinadigan “xaroj” (خراج) tushumi miqdoridan tobora ozayib borganligi sababli zakot davlat miqyosida o'z mavqeyini yo'qota boshladi. Asosiy davlat solig'i mavqeyini *xaroj* egallay boshladi. Chunki bu soliq umumiy hajm jihatidan davlat kirimining asosini tashkil etdi.

Arab-musulmon davlati byudjetining yuksalishidagi asosiy manba rolini yig'ilgan hosilning $\frac{1}{10}$ qismiga teng bo'lgan *ushr* (عشر – *o'ndan bir*) solig'i o'ynadi. Aksariyat manbalarda *ushr* solig'i ba'zan mustaqil, ba'zan *xaroj* solig'ining tarkibiy

⁷⁰ Прозоров, 2002. – С. 10.

⁷¹ Qur'on. 9: 60.

⁷² Faqirlar – kundalik ovqatini bemalol topib, ertasiga ham ortira oladiganlar.

⁷³ Miskinlar – kundalik oziq-ovqatini bazo'r topadiganlar.

qismi sifatida talqin etiladi. *Ushr* solig‘i xalifa Umar ibn Xattob davridayoq o‘zining aniq ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Bu davrga kelib, markazlashgan islom davlatining soliq tizimida boj va savdo *ushri* paydo bo‘ldi. Bu soliq urush olib borilayotgan davlat (بلد الحرب – *baladu-l-harb*) dan islom davlati tasarrufidagi hududlarga tijorat uchun qatnaydigan kemalar va yakka savdogarlarning tovarlari hisobidan olingan. Shuningdek, boj *ushr*ning foiz qiymati ham savdogarning diniy e‘tiqodiga qarab belgilangan: musulmonlardan *ushr*ning choragi ($\frac{1}{4}$), ya‘ni 2,5 % yoki 5 dirham yoki yarim misqol oltin, zimmiylardan *ushr*ning yarimi ($\frac{1}{2}$), ya‘ni 5 % yoki 10 dirham yoki bir misqol oltin, musulmonlar urush e‘lon qilgan hududdan kelganlar (بلد الحرب – *ahl baladu-l-harb* yoki حربى – *harbiy*) uchun esa o‘ndan bir ($\frac{1}{10}$), ya‘ni 20 dirham yoki ikki misqol oltin olingan. Shuningdek, *ushr* solig‘ining nisobi 20 misqol tilla yoki 200 dirham etib belgilangan⁷⁴. Bundan *ushrga* ham *zakot*ning nisobi asosiy mezon qilib belgilanganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, islom davlati hududiga kirib kelayotgan bug‘doy va yog‘ mahsulotlariga musulmonlarda ehtiyojning kattaligi uchun yarim ushr, mosh, no‘xat, yasmiq, loviyalarga – to‘liq *ushr* tayin etilgan⁷⁵.

Yangi shakllanayotgan soliq tizimida musulmon bo‘lmagan aholidan jon boshi hisobida olinadigan jizya solig‘i muhim o‘rin tutdi. Yangi davlat bu soliq evaziga musulmon bo‘lmagan jamoa a‘zolarini (أهل الذمة – *ahlu-z-zimma*) urushda talafot ko‘rmasliklari, mol-mulki, uylari, hayotlari, ibodat erkinliklari va cherkovlarining himoyasini ta‘minlashga va‘da berdi. *Ahlu-z-zimma* maqomiga boshqa dinlar vakillari – *ahlu-l-kitob* (أهل الكتاب), ya‘ni xristianlar, yahudiylar va sobiylar ega bo‘ldilar. Davlatning *jizya* (الجزية) masalasiga dunyoviy va diniy jihatdan ikki xil yondashuvi uning Banu Tag‘lib⁷⁶ arab-xristian qabilasiga nisbatan joriy etilishida yorqin namoyon bo‘ladi. Banu Tag‘libning xristian dinidagi a‘zolari jizya o‘rniga ikki barobar zakot⁷⁷ to‘lashlari lozim deb topilishi xalifalikning iqtisodiy siyosatida ham dunyoviylik unsurlarining orta borganini ko‘rsatadi.

Markazlashgan Madina davlati boshqaruvi Umar ibn Xattob qo‘liga o‘tgach, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy shakli avvalgi holatini tubdan o‘zgartirdi. U zabt etilgan hududlarning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy tizimlarni islom davlati amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, Umar ibn Xattob *devonlar* tizimini eroniylardan o‘zlashtirgach, bu *devonlarni* bir yerga birlashtirish maqsadida *baytu-l-mol* muassasasini tashkil etdi⁷⁸. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatdagi qurilishlar, davlatning harbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy ta‘minot, iqtisodiy islohotlarni davlat o‘z tasarrufi doirasida ushlab turishi uchun qoplanadigan mablag‘lar va hukumatning boshqa sarflari uchun ketadigan xarajatlar *baytu-l-moldan* olinib boshlandi.

⁷⁴ Abu Yūsuf Ya‘qūb ibn Ibrāhīm. Kitāb al-Kharāj. al-Qāhira: Dār al-Kitāb al-Islāmī, 1985. – S. 234-236 (Bundan keyin: Abu Yūsuf).

⁷⁵ Ibn Abī Shaybah. al-Muṣannaf fī al-Aḥādīth wa al-Āthār. 2 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 1413 h. – M.2. – S. 417.

⁷⁶ Furot va Dajla doryolarining quyi tarafida yashaydigan arab-xristian qabilasi.

⁷⁷ Abu Yūsuf. – S. 213.

⁷⁸ at-Ṭabarī. – M. 2. – S. 402; al-Balādhurī. Futūḥ al-Buldan. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 1998. – S. 439 (Bundan keyin: al-Balādhurī. Futūḥ); ‘Abd al-Wahhāb an-Najjār. al-Khulafā‘ al-Rāshidūn. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2003. – S. 248-249.

Davlatdagi tushumlarning oshishi bilan bir qatorda uning xarajatlari ham oshib bordi. Buni xalifa Umar ibn Xattobning arab davlatchiligiga umuman yot bo'lgan hukumat ishchi-xodimlari, jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami va diniy arboblarga muayyan tartibda maoshlar berila boshlanganligini ko'rish mumkin.

“*Arab-musulmon davlatchiligi rivojida harbiy tizimning mukammallashib borishi*” nomli ikkinchi bo'limda arab-musulmon davlatchiligi tarkibiga kirgan xududlarda tashkil etilgan harbiy lagerlar, askarlik tizimi shakllanishi va buning natijasida harbiy salohiyatning o'sib borganligi haqida so'z boradi.

Umar ibn Xattob davriga kelib harbiy tizimda bir qator o'zgarishlar ro'y berdi. Maxsus “askar” lavozimi va “askarlik devoni” tashkil etilib, askarlarga muayyan tartibda maosh berila boshladi. Bu tizim ilk davridagidan ancha takomillashib, tashqi fathlarda musulmon qo'shinlari tarkibida arab-xristian qabilalari ham ishtirok eta boshladilar. Istilo etilgan hududlarda harbiy lager sifatida Kufa, Basra va Fustot shaharlari qurildi. Davlat harbiy kuchlari tarkibida esa bir nechta harbiy unvonlar ta'sis etildi. Jumladan, “أمير الجيش” – qo'shin boshlig'i va “أمراء الكراديس” – Karodis (birligi: kurdis) bo'linmalari otliq suvoriylardan iborat edi. “أمراء التعبئة” – safarbarlik (mobilizatsiya) bo'limi boshliqlari, *nuqabo* (النقباء) – (birligi: naqib) kapitan unvonini bildiradi, “العرفاء” (birligi: orif – serjantga to'g'ri keladigan harbiy unvon) har bir askar guruhiga tayin etilib, ular askarlar maoshini tarqatishga mas'ul bo'lganlar⁷⁹.

Yangi tashkil topayotgan arab-musulmon davlatining sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lgan Eron va Vizantiya hududlariga kirib borishi, arablarga eronliklardan harbiy kuchlarni besh qismga bo'lib jang qilish tizimini o'zlashtirish imkonini berdi. Harbiy kuchlarni besh guruhga bo'lganliklari uchun qo'shinning nomi “الخميس” (beshlik) deb ataldi. Birinchi guruh o'rtada joylashib, oliy qo'mondon tasarrufi ostida bo'lgan. Bu guruh “قلب الجيش” qo'shinning markazi, o'ng tarafdagi otryad – “ميمة”, chap tomondagi guruh esa – “ميسرة” – deb atalgan. Oldingi safdan suvoriylar o'rin olgan bo'lib, “مقدمة”, orqadagi guruh “ساقة الجيش” ya'ni, orqa tomon deb atalgan⁸⁰. Usmon ibn Affon davriga kelib, arab-musulmon davlati harbiy kuchlari tizimida harbiy dengiz floti (أسطول) ham vujudga keldi. Dengizdagi har bir kemada qo'shinlarining rahbari “أمير البحر” (*dengiz amiri, admiral*) deb atala boshlandi⁸¹. Arab-musulmon qo'shinlarining Vizantiya va sososniylar imperiyasi hududlarini istilo etib, to'la g'alaba qozonishiga birinchi navbatda mazkur hududlardagi tub aholining Arabiston yarim oroli bilan etnik aloqadorligi, davlat ma'muriyatining, fuqarolar boshqaruvining kuchsizligi, hamda ijtimoiy tabaqalanishning rivojlanganligi asosiy sabab bo'ldi.

“*Arab-musulmon madaniyatining tashqi sivilizatsiyalar ta'sirlariga moslashishi*” nomli uchinchi bo'limda islom davlati tomonidan zabt etilgan xududlardagi mavjud madaniy va ma'rifiy urf-odatlar, shaharsozlik, me'moriy yodgorliklarning islom an'analariga moslashtirilishi tadqiq etilgan.

⁷⁹ Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah – §. 119.

⁸⁰ Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah. – §. 112; Tabariy. – M. 3. – §. 125; Balazuriy. Futuh. – §. 231.

⁸¹ at-Ṭabarī. – M. 4. – §. 288; Ibn Khaldūn. al-Muqaddimah. – §. 220-222; Ḥasan Ibrāhīm Ḥasan. Ta'rīkh al-Islām al-Siyāsī va al-Dīnī va al-Thaqāfī va al-Ijtīmā'ī: 4 m. Bayrūt, 1996. – M. 1. – §. 393.

Islom bayrog‘i ostida birlashgan arab qabilalari tomonidan turli qo‘shni mamlakatlarni zabt etish natijasida mutlaqo yangi geosiyosiy vaziyat vujudga keldi. Yangi tashkil topgan davlat qadimiy boy an‘analarga ega bo‘lgan Misr, Suriya, Mesopotamiya, Eron kabi madaniyat o‘choqlarini istilo etib, bir davlatga birlashtirdi. Tarixda sivilizatsiyalar o‘rtasida ilk marotaba muloqot boshlanib, yangi arab-musulmon madaniyati shakllana boshladi. Arabiston yarim oroli hududida shaharlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, yangi markazlar vujudga kela boshladi. Ularning shakllanishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalq vakillari ham faol qatnashdilar. Yangi shaharlar qurilishi davlatning harbiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlashda ham muhim o‘rin egalladi. Chunki chet o‘lkalarni zabt etish evaziga yangi tashkil topayotgan davlat hududini kengaytirish asosiy maqsad etib qo‘yilgan edi. Natijada Basra (15/636), Kufa (17/638) va Fustot (19/640) shaharlari asosan arab qo‘shinlari uchun harbiy lagerlar sifatida barpo etildi.

Musulmonlar chet hududlarni zabt eta boshlagach, ularning uy-joy qurilishi borasidagi uslublarini tez sur‘atda o‘zlashtira boshladilar. Qadimdan arablarning binolari o‘ta sodda bo‘lib, umuman deraza qo‘yilmas, uylar faqat devorlardan iborat bo‘lar edi. Shaharlarning arxitekturasi va ularni bezatish bilan bog‘liq qurilish masalalarida arabcha uslubning bir necha noqulayliklaridan voz kecha boshlandi. Shuningdek, Kufa shahrining yo‘l va binolarning joylashishida Sosoniylar imperiyasi shahar qurilishining muayyan o‘lchovlari o‘zlashtirildi. Magistral yo‘llar – 40 gaz (20 metr), ikkinchi darajali yo‘llar – 30 va 20 gaz, kichkina ko‘chalar – 7 gaz. Kvartallarning uzunligi 60 gazni tashkil etardi. Bu o‘lchovlar xalifa tomonidan tasdiqlangan⁸². Bu Vizantiya va Eronga tegishli bo‘lgan yerlarni zabt etilishi natijasida u yerlardagi muhandis va ustalarning Madinaga maxsus olib kelinishi natijasida bo‘ldi.

Zabt etilgan hududlardagi xristian va yahudiy dinlari uchun muqaddas bo‘lgan qadamjolar Qur‘onda zikr etilgan payg‘ambarlar va muqaddas shaxslar bilan bog‘lanib, islom an‘analari asosida musulmon qadamjolariga aylantirildi⁸³ va islomlashuv jarayonlari amalga oshirildi. Ma‘lumki, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) davrida Qur‘oni karim yetti xil lahjada (610-632-yillar) nozil etilgan. Abu Bakr to‘plam holiga keltirgan Qur‘onda ham yetti qiroat mavjud edi. Payg‘ambar vafotidan so‘ng arab istilolari natijasida turli mintaqalarga tarqalib ketgan musulmonlarning Qur‘on tilovati bir-biridan farq qilib, ayrim tortishuvlarga ham sabab bo‘la boshladi. Natijada xalifa Usmon ibn Affon yetti lahjadagi Qur‘on to‘plamlarini yig‘ib, yagona Quraysh lahjasiga asoslangan mus‘hafni yozdirdi⁸⁴ va bu tarixda “*Usmon Mus‘haf*” nomi bilan qoldi. Musulmonlar Qur‘on, uning tafsirini va hadis ilmlarini o‘rganish bilan birga, zabt etilgan davlatlarning tili, adabiyoti, urf-odatlarini va ular egallayotgan ilmlarni o‘zlashtirishga harakat qildilar⁸⁵.

⁸² Большаков. История. – Т.2. – С. 153.

⁸³ at-Ṭabarī. – М. 4. – §. 590-595.

⁸⁴ Ibn Sa‘d, Muḥammad. al-Ṭabaqāt al-Kubrā. 9 m. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2001 – М. 3. – §. 151; Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Mus‘hafining tarixi. – T.: Movarounnahr, 1995. – B. 18-19.

⁸⁵ As-Saqār, Somī Khammās. Lamahāt fi nushū‘ al-ḥarakāt al-‘ilmiyya fi al-Hijāz fi Ṣadr al-Islām. // Al-Jazīra al-‘Arabiyya fi ‘Aṣr al-Rasūl wa al-Khulafā’ al-Rāshidīn. Vol. 3. Riyād, 1998. – §. 67.

Arablar hayotida kiyinish madaniyati va pazandalik san'ati zabt etilgan xalqlar madaniyati bilan uyg'unlashdi. Arab madaniyati – arab-musulmon davlatini tashkil etgan turli xalqlar madaniyati bilan qorishgan holda islomga moslashtirildi. Arab tili – islom dini birlashtirgan turli xalq va elatlar uchun asosiy aloqa tiliga aylandi. O'z navbatida arablar Vizantiyaga qaram bo'lgan Suriya, Misr va Erondagi mavjud ijtimoiy-siyosiy davlat tizimi, ma'muriy tashkilotlar, moddiy va ma'naviy hayot udumlarini qisman o'zlashtirdilar. Shuningdek sosoniylar davlatidan markazlashgan davlat idorasi, soliq tizimi va ishlab chiqarish usulini qabul qildilar. Taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida yaqin aloqalarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi, ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojiga turtki berdi. Natijada xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati Yevropadagi tarqoq davlatlar, mamlakatlar madaniyatidan yuqori darajaga ko'tarildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarni himoyaga olib chiqish joiz deb topildi:

1. Tadqiqot davrining yoritilishidagi asosiy muammo tarixiy asarlarning faqat VIII-XII asrlarda, ya'ni davrga nisbatan kechroq yozilganligidadir. VII asr voqealari shohidlar, ya'ni roviylar orqali yetib kelgan og'zaki hikoyalarga asoslanib, bayon etiladi. VIII asrda ushbu hikoyalarga adabiy ishlov berilib yozilgan bo'lsada, birinchi an'anaviy yozuvchilarning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Mazkur asarlar keyingi davr tarixchilari uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi. Ammo, bu xabarlar aksariyat hollarda ulamolar va turli diniy firqa va guruh vakillari tomonidan jamlanganligi sababli, ularga ortiqcha diniy va subyektiv talqin berilgan. Islom tarixi bo'yicha yozilgan manba va adabiyotlar mualliflarining qaysi diniy guruhlariga va ijtimoiy tabaqalarga tegishli ekanligiga alohida e'tibor berish zarur.

2. Sharq sivilizatsiyasi rivojiga islom dini tarqalishi bilan zamondosh bo'lgan mualliflarning asarlari o'ziga xos jihatlari bilan aks etdi. Jumladan, shialik va xorijiylikning kuchayishi, Abbosiylar davridagi *mihna* voqealari, islomdagi g'oyaviy bo'linishlar asarlarning asosiy mavzusiga aylandi. Ushbu kayfiyat islom tarixi bo'yicha ta'lif etilgan asarlarda ham o'z aksini topdi. Shu bilan birga, islom tarixi yoki shaxslar tarixi bilan bog'liq asarlar ko'paysada, ularning ba'zilarining obyektivligi shubha ostida qoladi. Sultonlar, qozilar va shu kabi zodagonlarning buyurtmalari bilan yoki ularga tilyog'lamalik qilish maqsadida ham kitoblar yozila boshladi. Shunday ekan, kelgusi tadqiqotlar uchun o'rta asr mualliflari va ularning asarlarini, hamda ularning qaysi diniy, siyosiy va mafkuraviy rag'bat yoki tazyiqlar ostida yozildi.

3. Islom tarixi, arab-musulmon madaniyatini o'rganish G'arb va Rossiya tadqiqotchilarining nazaridan chetda qolmadi. Ularning ba'zilar muammoga obyektiv yondashsalar, boshqalarining ishlarida noxolislik yaqqol sezilib turadi. Xususan, sobiq ittifoq davridagi “Союз воинствующих безбожников (Ashaddiy xudosizlar ittifoqi)” a'zolari tomonidan yozilgan ishlar shular jumlasidandir. Xorijiy Sharq mamlakatlari tadqiqotchilarining mavzu bo'yicha izlanishlarining ko'rsatkichi yuqori. Aytib o'tilganidek, mavzuga oid o'rta asr adabiyotida keskinlik

yuqori bo'lsa, yangi davr tadqiqotchilarining siyra va tarix bo'yicha yozgan ishlarida ilmiy tahlil sezilib turadi. So'ngi yillarda o'zbek kitobxonlariga taqdim etilayotgan kitoblarning aksariyati xorijiy tillardan, xususan turk tilidan xaridorgir, ommabop badiiy adabiyot sifatida tarjima qilinmoqda. Achinarlisi siyra va islom tarixi bilan bog'liq aksariyat tarjima asarlarning mualliflari mutaxassis tarixchilar emas, balki badiiy adabiyot vakillaridir.

4. Markazlashgan Makka -Madina davlatiga asos solinishida Madinaga hijrat davlatchilik rivojida tub burilish yasadi. Madinaga kelgan musulmonlar eng avvalo muhojirlar uchun muxolifatda bo'lishi mumkin bo'lgan guruhlar bilan shartnoma tuzildi va unga ko'ra musulmon va yahudiylarni, garchi har xil dinga e'tiqod qilsa ham, bir jamoaga mansub dindorlar (*mu'minun* - المؤمنون) deb hisoblandi. Musulmonlar uchun og'ir talablar asosida tuzilgan "Hudaybiya sulhi" Madina jamoasi uchun katta siyosiy g'alaba edi. Mazkur tinchlik sulhi musulmonlarga Arabiston yarim orolida erkin harakat qilish imkoniyatini yaratdi. Mazkur sulhning makkaliklar tomonidan buzilishi, musulmonlarning Arabiston yarim orolida katta siyosiy kuch sifatida g'alaba qozonishiga hamda Makkani to'liq musulmonlar qo'liga o'tishiga zamin bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Makka-Madina raqobati davrida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hech qachon hujumkor (agressiv) mavqeni egallamagan.

5. Makka fathidan keyin Arabiston yarim orolida shakllangan teokratik davlat diniy-siyosiy tusga ega bo'lib, u o'z o'rnida Muhammad (s.a.v.) shaxsiyati bilan bog'liq edi. Madina davlatida harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy strategiya yaratildi va bu davlat butun Arabiston yarim orolini to'liq egallab, Vizantiya hamda Eron saltanatlariga tahdid sola oladigan imperiyaga aylana boshladi. Xalifaga qasamyod qilish (*bay'at*) usuli oldingi arab an'analari asosida sof dunyoviy amal sifatida o'zlashtirildi va turli bosqichlardan so'ng yangi davlatchilik asoslari sirasiga kiritilgan. Davrlar o'tishi bilan *umma* amaliyoti sifatida sakrallashtirilib, keyinchalik sof diniy hodisa sifatida talqin etilgan. Muhammad (s.a.v.) davrida din asoslarini o'rgatish uchun *muallim* tayinlanar edi. Keyinchalik *mu'allimlar* o'rnini *omillar sadaqa* va *xaraj omili* egalladi. Umar ibn Xattob davrida ularning ustidan *voliy* tayinlana boshladi. Umaviylar davridan *amir* deb atay boshlandi. Ilk davrlarda xalifalarga xos soqchi biriktirilmagan, chunki bunga zarurat bo'lmagan. Xorijiyalar xalifa Muoviya ibn Abu Sufyonga suiqasd qilganidan keyin, Umaviylar xalifaligi davrida "*hijoba*", ya'ni soqchilik lavozimi joriy qilindi.

6. Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng vujudga kelgan tarixiy-siyosiy vaziyat natijasida va arab-musulmon davlatining jadallik bilan rivojlanishi boshqaruvdagi dunyoviy unsurlarning muttasil kuchayib borishini tezlashtirdi. Arabiston yarim oroli ahli va ilk *ummaga* noma'lum bo'lgan davlatchilik unsurlar son jihatidan ko'paya bordi. Shu bilan bir qatorda davlatchilik tizimiga o'tish jarayonida eski arab qabilachiligi (*asabiya*) jamiyatida mavjud bo'lgan ba'zi bir unsurlarga yangi ma'no berilib, ular yangi davlatchilik institutlariga aylantirila boshlandi. *Bay'at* sof islomiy amal sifatida e'tirof etilib, bu borada Sosoniylar va Vizantiya imperiyalari davlatchilik an'analari ta'siri yaqqol sezila boshladi. Sosoniylardan o'zlashtirilgan *devonlar* tizimi davlat boshqaruvini tartibga solishda muhim o'rin tutdi. U markaziy

hokimiyat tarkibida bo'lib, kirim-chiqimni nazorat qilish bevosita voliyalar zimmasiga yuklatildi. Bu tizim vositasida Umar ibn Xattob hukmat va harbiy xizmatchilarga haq to'lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo'lgan. Bu jarayonlar bevosita diniy davlat boshlig'i vazifasini o'tayotgan xalifalar asta-sekinlik bilan dunyoviy rahbarga aylana bordilar.

7. Abu Bakr (632-634) xalifaligi davrida musulmon jamoasining birligini saqlash va ichki va tashqi fitnalardan himoya qilishga katta e'tibor berildi. "Ridda" (ردة) harakati, ya'ni "qaytish" yoki "dindan chekinish" deb ataladigan voqealar, asosan "soxta payg'ambarlar" (mutanabbiylar) tomonidan amalga oshirildi. Ridda harakati arablarning tarqoq bo'lib ketishini oldini olishga qaratilgan siyosiy harakat sifatida qaraladi. Ushbu harakatda ishtirok etgan mutanabbiylar, Payg'ambar (s.a.v.)ning hayotida ham ko'tarilishlar qilishgan. Ridda harakati, aslida diniy jarayon sifatida talqin qilinsa-da, aniq siyosiy maqsadlar bilan amalga oshirilgan. Bu davrda "soxta payg'ambarlar"ga qarshi olib borilgan siyosatni qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. Natijada, davlat va jamiyat ichida turli ixtiloflar kuchayib, siyosiy kuchlarning qarama-qarshiligi "Karbalo fojiasi", "Abdulloh ibn Zubayrning o'ldirilishi", "Abu Muslim qo'zg'oloni", "mihna" kabi ichki fitnalarga olib keldi.

8. Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin jamoa-davlat rahbari lavozimini "*xalifa*" deb atay boshlandi. Birinchi rahbar "خليفة رسول الله", ya'ni "*Alloh payg'ambarining o'rinbosari*" deb ataldi. Abu Bakrdan so'ng rahbarlikka saylangan Umar ibn Xattob mantiq bo'yicha Abu Bakrning o'rinbosari, ya'ni "*Xalifatu xalifati rasullillohi*" deb ataldi. Davlatchilik shakllanishi jarayonlarining tezlashishi natijasida xalifa bajarayotgan vazifalar ichida dunyoviylik jihatining ko'payishi oqibatida bu mansab diniy hissiyoti kuchli fuqarolar tarafidan bir tomonlama, ya'ni dunyoviy deb qabul etila boshlandi. Shunday bir holatda xalifa o'zini "yarim diniy" atama – "أمير المؤمنين" ya'ni "*amir*" dunyoviy ma'noni anglatuvchi atama bo'lsa, "*mu'minun*" atamasi musulmonlar jamoasiga ishorat edi. Birinchi fuqarolar urushi (656-661) davrida bu ikki atama (*xalifa* va *amiru-l-mu'minin*) hokimlarning salbiy xatti-harakatlari oqibatida jamiyat a'zolari, ayniqsa uning dindor qismi vakillari – ulamolar ko'z oldida o'z ishonchini, salmog'ini yo'qotdi. Shu sababli diniy shiorlar ostida o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun kurashayotgan xalifa Ali ibn Abu Tolib tarafdorlari uni "*Imom*" deb atay boshladilar.

9. Muhammad (s.a.v.), Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon o'z rahbarliklarining poytaxtini Madina shahrida saqlab qoldilar. Madinada boshlangan beqarorliklar 656-yili xalifalikka yangi saylangan Ali ibn Abu Tolibni Kufa shahriga ko'chishga majbur qildi. Muoviya ibn Abu Sufyon davlat markazini Madinadan Damashqqa ko'chirdi. Abbosiylar avvaliga Kufa shahri bilan kifoyalanib, Bag'dod shahrini, keyinchalik Samarrani qurdilar. Xalifa Umar ibn Xattob davrida askarlar uchun harbiy lager sifatida qurilgan "*Fustot*" shahri o'rnida fotimiylar Qohira shahriga asos soldilar. Davlat tepasiga Abbosiylar kelgandan keyin bu umaviylar qatag'on qilina boshlandi. Lekin, ushbu qatag'ondan Yevropada panoh topgan sulola vakili Abdurrahmon I Doxil Ispaniyada Kordova xalifaligini tashkil etdi. Turli sulolalar asrlar davomida arab-musulmon davlatiga hukmronlik qilganiga qaramay

juda ko'plab shaharlar barpo bo'ldi. Ammo ulardan sanoqlilarigina mazkur sulolalar uchun poytaxt vazifasini o'tadi xolos.

10. Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng davlatni qisman teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o'zgarishlar ro'y berishi muqarrar edi. Chunki Muhammad (s.a.v.) – payg'ambarlarning so'nggisi, muhri (*Xotamu-l-anbiyo* – خاتم الأنبياء) edi. Demak, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita ilohiyot amri ila boshqarish, unga tub o'zgartirishlar kiritish bundan so'ng mumkin bo'lmay qoldi. Bunday sharoitda islom rasmiy din sifatida e'tirof etilgan jamiyatda dunyoviylik va diniylikning mutlaqo yangi muvozanati jadallik bilan shakllana boshladi. Sof teokratik (islom) davlat tushunchasida dastlabki mazmun-mohiyat kamaya boshladi. Shu o'rinda Muhammad (s.a.v.)ning xalifalik o'ttiz yil davom etishi va undan so'ng davlat boshqaruvida amirlik, podsholik (*sultonlik*) tizimi paydo bo'lishini bashorat qilishi amalda o'z tasdig'ini topdi. Hozirgi paytda xalifalik yoki islomiy davlat tuzish maqsadida yurgan ba'zi guruhlarining iddaolari diniy va tarixiy jihatdan nolegitim ekanligi, haqiqiy xalifa saylash uchun, sahobalar ijmosiga ko'ra, to'rt muhim shart: nomzodning Qurayshdan, birinchilardan bo'lib islomni qabul qilganlardan, Madinaga hijrat qilganlardan va Badrda ishtirok etganlardan bo'lishi hozirda topilmasligi orqali isbotlangan. Chunki ushbu to'rtta talab Muhammad payg'ambar (s.a.v.) shaxsiyatining hozir bo'lish majburiyatini qo'yadi.

11. Xalifalikda iqtisodiy sohadagi islohotlar asosida istilo etilgan hududlardan yig'ilgan tushumlar evaziga davlat byudjetini oshirishga intilish ko'zga tashlanadi. Davlatning iqtisodiy rivojida xalifa Umar ibn Xattobning islohotlari va soliqlar tizimida muayyan o'lchovlarning tayin etilishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida rivojlangan boj solig'i, davlat xo'jaligini olib borish va nazorat etish tizimida keng istifoda etila boshladi. Davlat soliq tizimida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) davrida chorva-moldan olinadigan zakot davlat solig'i sifatida o'z mavqeyini yo'qota boshladi. Asosiy davlat solig'i mavqeyini *xaraj* egallay boshladi. Chunki umumiy hajm jihatidan *xaraj* davlat kirimining asosini tashkil etdi. Zakot esa har bir musulmonning diniy majburiyatiga aylandi. Umar ibn Xattob davriga kelib yig'ilgan zakot solig'i hisobiga yashovchi musulmon bo'lmagan rahbarlar (مؤلفة قلوبهم) yordamiga ortiqcha zarurat qolmadi.

12. Arab-musulmon davlati tashkil topgan dastlabki davrlarda harbiy tizimning shakllanishi va Madina shahrida *baytu-l-mol* tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xalifa Umar ibn Xattob, Sosoniylar imperiyasining poytaxti Ktesifonni zabt etish (638) va moyanalar taqsimlanishi bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirdi. U davlatning harbiy tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritib, jangchilarga maosh berish uchun *devon* tashkil etdi. Har bir askar o'zining harbiy maqsadlari, qurollari va mavqeyiga ega bo'ldi. Shuningdek, "عسكر في الليل" (tungi posbonlik) tizimi joriy qilindi. Umaviy xalifaligi davrida Abdulmalik ibn Marvon (685) majburiy harbiy xizmatni joriy etdi. Basra, Kufa va Fustot kabi shaharlarda harbiy gornizonlar tashkil etildi, bu esa xalifalikning harbiy-strategik salohiyatini oshirib, davlat hududini kengaytirishda asosiy omil bo'ldi. Eron va Vizantiya sivilizatsiyalari bilan aloqalar orqali arablar harbiy kuchlarni besh qismga bo'lib jang qilish tizimini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, arab xristian qabilalarining musulmon

bo‘lmagan holatda harbiy yollanma askarlar sifatida foydalanilishi, davlat manfaatlari va dunyoviylik prinsiplari ustuvorligini ko‘rsatadi.

13. Arab madaniyati – deb nom olgan madaniyat musulmon xalqlarining an‘analari asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat bo‘lib xizmat qildi. Arab tili – islom dini birlashtirgan xalq va elatlarning aloqa tiliga aylandi. Arablar Vizantiyaga qaram bo‘lgan Suriya, Misr va Eronda mavjud ijtimoiy va siyosiy davlat tizimi, ma‘muriy tashkilotlar, moddiy va ma‘naviy hayot udumlarini o‘zlashtirdilar. Shuningdek, Sosoniylar davlatidan markazlashgan davlat idorasi, soliq tizimi va ishlab chiqarish usulini qabul qildilar. Davlatdagi taraqqiyot darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o‘rtasida yaqin aloqalarning o‘rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojiga turtki berdi. Natijada xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati Yevropadagi tarqoq davlatlar, mamlakatlar madaniyatidan yuqori darajaga yetdi.

TAVSIYALAR

Olingan natija va xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi va O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda ilk islom tarixini o‘z ichiga olgan birlamchi manbalarni kompleks tadqiqi ko‘lamini kengaytirib, ularning hayotdagi o‘rni masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi va Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda yoshlarda “xalifalik”, “jihod”, “hijrat” kabi tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilinishiga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida turkum teleko‘rsatuvlar, ilmiy maqolalar tayyorlash jarayonida dissertatsiya xulosalaridan foydalanish.

3. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan hamkorlikda xorijga ishlash uchun ketayotgan mehnat muhojirlariga “Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi immunitetni shakllantirish”, “Xalifalik: iddao, tarix va voqelik” borasida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish.

4. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari talabalari uchun “Islom tarixi”, “Islomshunoslik asoslari”, “Arab mamlakatlari tarixi”, “Arab mamlakatlari tarixiy geografiyasi” va shu kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalar mazmunini boyitish.

**SCIENTIFIC COUNCIL UNDER NUMBER
DSc.35/30.12.2019.IsI/Tar/F.57.01 DIGITAL SCIENCE COUNCIL
UNDER INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN**

CENTER FOR ISLAMIC CIVILIZATION IN UZBEKISTAN

ZAKHIDOV KOBILJON TAIRDJANOVICH

**THE FORMATION OF THE ARAB-MUSLIM STATE AND THE
INFLUENCE OF FOREIGN CIVILIZATIONS (VII-IX CENTURIES)**

24.00.01 – History and source study of Islam

**DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF SCIENCE (DSc)
ON HISTORICAL SCIENCES**

Tashkent - 2025

The theme of the doctoral thesis is registered by Supreme Attestation Commission under the Republic of Uzbekistan under the number B2023.3.DSc/Isl11.

The dissertation was completed at the Center for Islamic Civilization in Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.iiu.uz) and on the “ZiyoNET” Information and Education Portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:	Hasanov Ahadjon Ahmadjonovich doctor of historical sciences, professor.
Official opponents:	Muhammadsiddikov Muhammadolim Muhammadrozik ogli doctor of political sciences, professor. Yusupova Dilorom Yunusovna doctor of historical sciences, professor, academic Iskhakov Mirsadik Mirsultanovich doctor of historical sciences, professor
Leading organization:	Bukhara State University

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered Dsc.35/30.12.2019.IsI/Tar/F.57.01 under the International Islamic Academy of Uzbekistan at February _____, 2025 at _____. (Address: 100011, Tashkent city, A. Qadiri str., 11, Tel.: (99871) 2440056, Fax: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz.)

The dissertation can be viewed at the Information and Resource Center of the International Islamic Academy of Uzbekistan (registered with number 170). Address: 100011, Tashkent city, A. Qadiri Street, 11, Tel.: (99871) 2440056, Fax: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz.)

Abstract of dissertation was delivered on February _____, 2025.

(Register protocol number №01 of on February 03, 2025).

D.R. Makhsudov

Chairman of the scientific council that awards scientific degrees, historical sciences, professor

S.A. Rustamiy

Scientific secretary of the scientific council granting scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

Z.M. Islamov

Chairman of the scientific seminar at the scientific council for awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

INTRODUCTION (Doctor of Historical Sciences (DSc) dissertation annotation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Among the histories and systems of world statehood, the Arab-Muslim traditions, particularly the Islamic state that emerged in the Arabian Peninsula (الجزيرة العربية) in the early Middle Ages, stand out. During the 7th-9th centuries, a clear distinction between collective governance and the elements of statehood became evident, marked by a transition from a theocratic authoritarian system to a monarchy. This process was influenced by the gradual incorporation of administrative and military traditions from the Persian and Byzantine Empires. Systematic efforts are being conducted to explore the role of religious and secular factors in state governance, along with the socio-economic, military, and cultural dimensions of history. These efforts aim to strengthen the foundations for countering groups that interpret the establishment of the Caliphate (الخلافة) as the sole path forward.

Scientific research institutions specializing in the study of Islamic teachings and history worldwide are conducting studies on the formation of the Arab-Muslim state in the early Middle Ages and the influence of external civilizations on this process. These efforts also address the broader issues related to the development of Islamic history, Arab-Muslim culture, literature, and art. Particular attention is being given to the theoretical analysis of statehood in Islam, including forms of governance and the structural foundations of state authority. This research focuses on understanding the formation of Arab-Muslim statehood, the impact of external civilizations, the balance between secular and religious factors in the establishment of state systems, and the processes underlying their integration and harmonization.

In recent years, New Uzbekistan has been establishing normative foundations for the study of the history of national statehood based on primary sources, as well as for examining the historical roots of Uzbek statehood and the internal and external influences shaping it. As our esteemed leader has emphasized, “*Everyone glorifies their own history. However, no country possesses such a rich past and great scholars like our ancestors. We must deeply study this heritage and convey it to our people and the world*”¹. As a result of ongoing reforms in this field, the study of the history of Arab-Muslim statehood, which had a significant influence on the Central Asian region, and the analysis of the integration of local governance traditions into it, provide an expanded opportunity for a comprehensive understanding of the governance, cultural, and spiritual development of our homeland during the 9th -15th centuries-considered the foundations of the “Third Renaissance.”

The tasks outlined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, including Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; Resolution No. PQ-2774 dated February 14, 2017, “On Measures to Establish the International Scientific Research Center of Imam Termizi”; Resolution No. PQ-3160 dated August 28, 2017, “On Enhancing the

¹ Mirziyoyev Sh.M. Center for Islamic Civilization will serve our people for centuries // president.uz/en/lists/view/3085

Effectiveness of Spiritual and Educational Activities and Raising the Field to a New Level”; Resolution No. PQ-5040 dated March 26, 2021, “On Fundamental Improvement of the System of Spiritual and Educational Activities”; and the July 16, 2021 decision on “Additional Measures to Further Improve the Activities of the Center of Islamic Civilization under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan”, are supported by this dissertation to a certain extent.

Compliance of the research with the priority directions of the republic's science and technology development. The research was carried out in accordance with the priorities of the development of science and technology of the Republic I. “Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the informed society and the democratic state and the ways of their implementation”.

Review of foreign research on the topic of the dissertation².

The formation of Arab-Muslim statehood and the influence of external civilizations on it (7th–9th centuries), the history of Islamic governance, and the balance between religious and secular principles within it, as well as issues related to the establishment of the capital, are being studied by leading research centers and higher educational institutions worldwide. These include the Institute of Oriental Manuscripts of the Russian Academy of Sciences (St. Petersburg), the Islamic University of Madinah (الجامعة الإسلامية بالمدينة المنورة), Al-Azhar University (جامعة الأزهر), Baku State University (Bakı Dövlət Universiteti), and the Oxford Center for Islamic Studies.

The following results have been obtained on the formation of Islamic statehood and the balance between religious and secular principles: The phenomenon of revelation, and the functioning of the city-state of Madinah have been explored (Institute of Oriental Manuscripts, St. Petersburg, Russian Academy of Sciences); early sources and literature on Islamic history have been analyzed (Islamic University of Madinah); the life of the Prophet Muhammad (pbuh), scientific research on the history of the Rashidun Caliphs, the Umayyad, and Abbasid dynasties has been conducted (Al-Azhar University); the reasons behind the Sunni-Shia division within Islam have been elucidated (Baku State University); and the emergence of capitals and military-political movements has been analyzed (Oxford Center for Islamic Studies).

Worldwide, research is being conducted in the following areas related to the history of Islamic state formation and the development of religious and secular principles in governance: the influence of Islam, established on the Arabian Peninsula, on world civilization and, conversely, the impact of external civilizations on Islamic statehood; the emergence of caliphal institutions; internal and external political and religious conflicts; inter-dynastic disputes; the Arabization processes in regions as a result of military campaigns; the economic policy framework; and the social conditions of the population.

The degree to which the problem has been studied. In various fields of social sciences, including history, religious studies, philosophy, and source studies, significant

² Review of foreign scientific research on the dissertation topic was prepared based on sources such as <https://www.dissercat.com>; <https://www.deutsche-gesellschaft-fuer-ordenskunde.de>; <https://www.numisbids.com>; <https://forum.faleristika.info>, <https://sammlung.ru>, <http://ihist.uran.ru> and other sources.

attention has been given to exploring Islamic history, its essence, and issues related to Islam and Arab statehood. Existing scholarly works have incorporated comprehensive analyses of primary sources on early Islamic history. These sources include the works of prominent figures such as Abū Yūsuf (113/731-182/798), Ibn Hishām (d. 218/833), Ibn Sa‘d (168/784-231/845), Khalīfa ibn Khayyāt (160/777-240/855), Imām al-Bukhārī (194/810-256/870), Aḥmad ibn Yaḥyā al-Balādhurī (205/820-279/892), Aḥmad ibn Ishāq al-Ya‘qūbī (d. 284/897), Abū Ja‘far al-Ṭabarī (224/839-310/923), Muḥammad al-Jahshiyārī (d. 331/943), Abū al-Ḥasan al-Māwardī (364/974-450/1058), Ibn al-Athīr (555/1160-630/1234), Ibn Kathīr (701/1301-774/1373), and Ibn Khaldūn (732/1332-808/1406)³. These studies have utilized newly published complete editions of these seminal works. Particular attention has been paid to analyzing the authors' affiliations with religious, political groups, and social strata. Through comparative analysis of divergent accounts found in sources authored in varying contexts, efforts have been made to reconstruct historical realities. This methodological approach has proven crucial for achieving a nuanced understanding of the past.

